11. Qanday tashkilotlar yer tuzish loyihalarini ishlash huquqiga ega?
12. Yer tuzish loyihaiarini bajarish ustidan kim rahbanik qiladi?
13. Loyihami amalga oshirish ustidan mualliflik nazorati nima maqsadda tkaziladi?
14. Yer tuzish ishlarni moliyalashning qanday manbaalari bor?
15. Yer islohoti davrida yer tuzish ishlarning qanday yangi turlari paydo b idi?

I k k i n c h i b 1 i m.
X JALIKLARARO YER TUZISH

III bob.

**X JALIKLARARO YER TUZISH TUSHUNCHASI,
VAZIFALARI VA MAZMUNI**

1. X jaliklararo yer tuzishning iqtisodiy mohiyati

X jaliklararo yer tuzish — uning yordamida yer resurslaridan foydalanishni va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga qaratilgan yer tuzish turlaridan biridir.

"X jaliklararo yer tuzish" tushunchasi jamiyatda va ishlab chiqarishda unga zarurat tu ilgan sari asia-sekin shakllandi. Avvalo, "chegaralash" tushunchasi mavjud b lib, uning ma'nosи quyidagidek ifodalalar edi: "Davlat chegaralashi yer mulkining chegaralarini moddiy va hujjatli mustahkamlashga va uning ichidagi yerlar miqdorini aniqlashga qaratilgan texnik va huquqiy harakatlar yi indisidan iboratdir".*

"X jaliklararo yer tuzish" atamasi faqat tgan asrning 40-yillarda professorlar S.A.Udachin va G.V.Cheshixinlarning ilmiy ishlarida paydo boidi.

X jaliklararo yer tuzish — bu xalq x jaligida, uning tarmoqlarida, yerdan foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etish, yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning yer fondlari, x jaliklarning yer uchastkalarini tartibga solish va zgartirish, yangilarini tashkil etish, ularni joylarda ajratish, ma'muriy-hududi b linmalar va maxsus q riqlanadigan hududlar chegaralarini belgilash b yicha tadbirlar tizimi va jarayonidir. Umijallangan maqsadga, mulkchilik turlariga va foydalaniishiga bo liq b lagan holda barcha yerlarni qamrab oladi.

X jaliklarda ichki yer tuzishdan farqli laroq x jaliklararo yer tuzish hamma vaqt bir necha yer egaliklarini va yerdan foy-

dalanishlarni qamrab oladi; faqat qishloq x jaligida emas, balki xalq x jaligining barcha tarmoqlari yerlarida tkaziladi.

X jaliklararo yer tuzishga yer tuzish masalalarining ayrim qishloq x jalik korxonalari va fermer x jaliklari hududlaridan tashqarida yechiladigan qismi kiradi. X jaliklar, korxonalar, tashkilotlarning tizimlari yer egaliklari va yerdan foydalanishlariga taalluqli masalalar uning vakolatidir. Yer tuzishning bu turi yordamida yerlar xalq x jaligi tarmoqlari, yer fondi toifalari, huquqiy shaxslar va fuqarolar orasida taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi; ishlab chiqarishni yuritish, uning faoliyat k rsatishi, korxonalarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun boshlan ich hududiy asos yaratiladi; yer qonunchiligi, ekologiya talablarining bajarilishi, maxsus huquqiy tartibga rioya qilish ta'minlanadi; yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning (yer uchastkalarining) aniq hududlari va ularning hududdagi chegaralari belgilanadi, texnika vositalari yordamida maydonlari aniqlanadi.

Yangi yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni yoki ma'rum huquqiy maqomga ega boshqa uchastkalarni tashkil etish, ularga zarur yaxshilashlar va zgarishlar kiritish, x jaliklararo yer tuzishga taalluqli boshqa ishlami bajarish, yerdan foydalanishning mayjud tashkil etilishida jiddiy zgarishlarga olib keladi, shuning uchun bunday yechimlar ilmiy asoslangan va chuqur

yangan b lishi kerak. Yer egaliklari va yerdan foydalanishlar chegaralarini joylarda mustahkamlash va huquqiy rasmiylashtirish x jaliklararo yer tuzish loyihasi asosida amalga oshiriladi. Loyiha ioyihaviy tavsiyalarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini, samaradorligini va haqqoniyligini tasdiqlovchi texnik-iqtisodiy k rsatkichlar va hisob-kitoblar tizimi bilan asoslanadi. Ekologiya talablari hisobga olinadi.

X jaliklararo yer tuzish yordamida yerdan foydalanishni tartibga solish — yerkarni mulkdorlar, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar orasida, yer qonunchiligi asosida, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish va davlatning yer siyosatini joriy etish maqsadida taqsimlash va foydalanish xarakteriga ta'sir etish amalga oshiriladi. Demak, x jaliklararo yer tuzish — yer islohotini tkazishning asosiy mexanizmidir.

X jaliklararo yer tuzish natijasida, odatda, ma'lum yer uchastkalariga b lgan huquq yuzaga keladi yoki zgaradi, ma'lum (boshlan ich) yer turlari tarkibiga ega yer egaligining (yerdan foydalanish) tashkil b lishi, uni hududda joylashtirish,

umumiylarini va chegaralarini belgilash sodir b ladi. U yer egaliklari va yerdan' foydalanishlar chegaralarini belgilash va zgartirish b yicha texnik (geodezik) ishlar, hamda huquqiy hujjatlarni berish bilan yakunlanadi.

X jaliklararo yer tuzishning iqtisodiy mohiyati hududni tashkil etishning barcha yaratiladigan shakllari va elementlarining (maydoni, ichki tuzilishi, shakli, joylashishi, chegaralari) yer tuzish obyektining, ishiab chiqarishni tashkil etishning, uni rivojlantirish va t la yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi talablariga mos boylishidan iborat b ladi. Tashkil etilayotgan yer egaligi (yerdan tbydalanish) korxonaning va uning ishlab chiqarishining eng samarali faoliyat k rsatadigan lchamlariga mos b lishi kerak.

Yer egaligini (yerdan foydalanishni) tashkil etish — bu butun yeri tuzilayotgan hududga taalluqli b lib, yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tuzishni, qayta tuzishni, tartibga solishni (takomillashtirishni) va yerkarni joylarda ajratishni z ichiga oladigan yer tuzish ishlari tizimidir.

Yer egaliklarini (yerdan foydalanishlarni) tuzish — xohlagan yerlarda yangi x jalikning yoki korxonaning mos yer maydonini yaratishdir..

Yer egaliklarini (yerdan foydalanishlarni) qayta tuzish — x jaliklarini maydonlarini, joylashishini, shaklini va sonini sezilarli zgartirishdir.

Yer egaliklarini (yerdan foydalanishlarni) tartibga solish — yer uchastkalarining lchamlarini (joylashishi, maydoni, chegaralari) maqsadli yaxshilashdir.

Lekin x jaliklararo yer tuzish tadbirlar tizimi sifatida faqat yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tashkil etish bilan tugamaydi. Bularidan tashqari yer, xalq xo*jaligi tarmoqlari orasida, tarmoqlar ichida, x jalik obyektlari, yer fondlari orasida taqsimlanadi. Bu x jaliklararo yer tuzishni ijtimoiy-iqtisodiy tadbirga aylantiradi.

X jaliklararo yer tuzish faqat unga haqiqiy zarurat tu ilganda, obyektiv sabablar bor boiganda va boshqa hech qanday tadbirlar zarur natijani bermaganda tkaziladi. Yer egaligi (yerdan foydaianish) tur un boiishi kerak, aks holda, u oqilona va samarali boimaydi.

Yer egaliklari (yerdan foydalanishlar) tur unligi — uzoq vaqtlar ichida x jaliklararo yer tuzish usuHari bilan zgartirish kiritish zaruratini keltirib chiqaradigan sabablar y qligidan obyektiv

kelib chiqadigan, uning maydonini va chegaralarini zgarmas saqlashdir.

X jaliklararo yer tuzishning omillari — x jaliklararo yer tuzishni tkazish zaruratini keltirib chiqaruvchi sabablar va sharoitlardir. Ularning eng asosiyлари — fabliyati uchun yer uchastkasi talab qilinadigan yangi x jalikni (korxona, muassasa, tashkilot) tashkil etish, ya'ni yangi yer egaligini (yerdan foydalanishni) tuzish, yerlar fondini yaratish, hududiy tuzilmalarning yangi chegaralarini belgilash hisoblanadi. Bu omil barcha toifalardagi yerlarda va barcha tarmoqlarda z ta'sirini k rsatadi.

Boshqa, quyidagi omillar faqat qishloq x jaligiga m ijallangan yerlarda, qishloq x jalik korxonalarida z ta'sirini k rsatadi:

— yerdan foydalanuvchilar, yer egalari va ijarachilar yer maydonlari joylashuvidan noqulayliklar;

— x jalik yer maydoni va tarkibining ishlab chiqarish tabalalariga va yerdan samarali foydalanish b yicha q yilgan vazifalarga mos tushmasiиги;

— ishlab chiqarish ixtisosligi, hajmi va boshqa sharoitlarning zgarishi natijasida yer maydonining ishlab chiqarishga mosligining buzilishi;

— x jaliklar yerkari tarkibining irrigatsiya, melioratsiya yoki boshqa tadbirlar natijasida keskin zgarishi;

— xo*jaliklararo va q shma korxonalar tuzish;

— zgarib turuvchi iqtisodiy sharoitga mos keladigan x jalik yuritishning yangi turlarini tashkil etish zarurati;

— qishloq x jalik korxonalarining ijtimoiy rivojlanishi;

— suvdan foydalanishdagi noqulayliklarni tugatish;

— yer va boshqa tabiiy resurslar muhofazasi, tabiatni q riqlash tadbirlarini tkazish zarurati.

X jaliklararo yer tuzish quyidagi tamoyillarga mos tarzda ikaziladi:

— respublikamizning yer t risidagi qonunlariga qattiq amal qiiish, x jaliklar yer maydonlarining tur unlagini va chegaralaring aniqligini ta'minlash;

— yerdan ilmiy asoslangan holda, ratsional va samarali foyuuianishni va qishloq x jaligining yerdan foydalanishdagi ustuvorilagini ta'minlash;

• x jaliklarga oldilariga q yilgan vazifalarini bajarishlari, !-,Hjb Lhiqarish samaradorligini oshirish va x jalikning ijtimoiy -1 • -;j'f<aJshini jadallashtirish uchun hududiy sharoit yaratib berisiz;

— qishloq x jalik korxonalarida ichki yer tuzishni t ri tashkil qilish va qishloq x jalidan boshqa tarmoq korxonalarida yerdan foydalanishni t ri rejalah uchun hududiy sharoit yaratish;

— yemi va tabiiy resurslarni muhofaza qilish uchun sharoit yaratish;

— su orma dehqonchilik mintaqalarida suvdan samarali, tabiatga zarar yetkazmasdan foydalanish uchun hududiy sharoit yaratish.

2. Yer fondi, uning tarkibi va foydalanilishi

0*zbekiston hududidagi barcha yerlar respublikamiz yer fondini tashkil etadi, uning maydoni 44410,3 ming getkarga teng.*

Yer fondi — bu ma'lum hududda, uning chegaralari ichidagi (mamlakatda, viloyatda, tumanda va sh. .) x jalik yuritish, mulkchilik, egalik qilish, foydalanish, ijara obyektlari hisoblangan barcha yerlarning yi indisidir.

Har xil faoliyat sohalarida yerdan har xil foydalaniladi, shuning uchun yer fondi yer toifaiariga b linadi, uiar ikkita belgi b yicha bir-birlaridan ajratiladi:

— asosiy m Ijallangan maqsad b yicha;

— foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy tartibi b yicha.

Demak, *yer toifalarisi* — bu yer fondining asosiy m Ijallangan maqsadi b yicha ajratilgan, foydalanish va muhofaza qilishning ma'lum huquqiy tartibiga ega qismidir.

zbekiston yer bilan kamroq ta'minlangan jahon davlatlari qatoriga kiradi. Unda bir odamga 1,8 ga umumiy maydon, 0,17 ga su oriladigan maydon t ri keladi.

Har bir toifa yerlaridan m Ijallangan maqsadga mos tarzda foydalaniladi.

M Ijallangan maqsad — bu yerlardan aniq maqsad uchun foydalanishning qonuniy belgilangan tartibi. shartlari va chegarasidir.

Yer toifalarining huquqiy tartibi yer va boshqa qonunchilik turlari bilan belgilangan foydalanish, muhofaza qilish, hisob va monitoring qoidalari bilan aniqlanadi va ma'lum yer toifasiga kiritilgan barcha yer uchastkalariga taaliuqlidir.

* zbekiston Respublikasi Yer resursiari Daviat q mitasining ma'lumotlari, 2004-y. l-yanvardagi holati b yicha.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi yer fondi (2004-y. 1-yanvariga)

T.r.	Yer toifalari	Maydoni, ming ga	%
1	2	3	4
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	22570,4	50,8
2	Aholi punktlarining (shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlari) yertari	237,2	0,5
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	1894,3	4,3
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lom-tashtirish, rekreatsiya maqsadlari-ga mo'ljallangan yerlar	72,4	0,2
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	0,2	—
6	O'rmon fondi yertari	8597,4	19,4
7	Suv fondi yertari	825,0	1,8
8	Zaxita yertari	10213,4	23,0
	JAMI	44410,3	100

Qishloq x jaligiga m Ijallangan yedarni qishioq x jaligidan zga ehtiyojlar uchun boshqa toifadagi yenVrga tkazishga alohida hollarda, "Yer kodeksi" va boshqa qon>> i hujjatiariga muvofiq y 1 q yiladi.

Qishloq x jaligi yerlarini irrigatsiya va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan sun'iy su onsh, qishloq x jaligi ishiab chiqarishini tashkil etishning asosi va yerlardan samarali foydalanish hamda ularning unumtdorligini oshirish shartidir.

Bu toifadagi yerlar tarkibida qishloq x jalik yer turlari 79,5%, haydalma yerlar esa 15,7% tashkil etadi.

Aholi punktlari yerlari — shaharlar, qishloqlar chegara (chizi i) ichidagi yerlardir.

Hozirgi vaqtida 120 shahar va shaharchalar, 1456 qishloqlar mavjud b lib, ular 232,7 ming ga yerni egallab turibdi.

Aholi punktlari yerlari tarkibining 3,9% qishloq x jaligi yerlariga t ri keladi, qurilish tagidagi hudud esa 9% tashkil etadi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa m^qsadlarga m Ijallangan yerlar — k rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun huquqiy shaxslarga berilgan yerlardir.

Sanoat maqsadlariga m Ijallangan yerlarga sanoat jkoxonalalriga, shu jumladan kon, sanoati, energetika korxonalariga, ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshootlar quirish uchun doimiy foydalanishga berilgan yerlar kiradi.

Transport maqsadlariga m Ijallangan yerlarga kabel, radio, havo aloqa tarmoqlari va elektr uzatish tarmoqlari ta^idagi, ular tgan yerlarga tutash yerlarda, qonun hujjatlari bilan toelgilangan tartibda, muhofaza mintaqalari uchun ajratilgan yerlar kiradi.

Qurolli kuchlar, chegara, ichki ishlar va temir yoi q shinlarining harbiy qismlari, harbiy quv yurtlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning joylashuvi hamda doimiy faoliyati uchun berilgan yerlar mudofaa ehtiyojlari uchun m Ijallangarii yerlar deb e'tirof etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish, so lomlashtirish, rekreatstya maqsadlariga m Ijallangan yerlar — alohida muhofaza etiladligan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega b lgan yerlar, shuningdek, ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlardir.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga m Ijallangan yerlar jumlasiga davlat q riqxonalari, milliy va dendrologiya bogiari, botanika bogiari, tabiat yodgorliklarining belgilangan tartibd-

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga maxsus maqsadlar uchun berilgan yerlari kiradi. Mazkur yerlarda ularning belgilangan maqsadlariga zid b^olgan faoliyat taqiqlanadi.

So lomlashtirish maqsadlariga m^oljallangan yerlar jumlasiga tabiiy shifobaxsh omillarga ega b^olgan, kasalliklaming oldini olish va davolashni tashkil etish uchun qulay, belgilangan tartibda tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan yer uchastkalari kiradi.

Rekreatsiya maqsadlariga moijallangan yerlar aholining om-maviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlardir.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar — tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlardir. Ular jumlasiga tarixiy-madaniy q^oriqxonalar, me'morial bogiar, qabristonlar, arxeologiya, tarix va ma'daniyat yodgorliklarining tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan yerlari kiradi.

rmon fondi yerlari — rmon bilan qoplanagan, shuningdek, rmon bilan qoplanmagan boisga ham, rmon x^o jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir. Ular rmon x^o jaligi korxonalari tasarrufida b^olishadi.

Boshqa maqsadlarga moijallangan yerlar rmonzorlar barpo etish, jarliklarning kengayishini tugatish, shaharlar va sanoat markazlari atrofida ihota rmonlari va k^oalamzor mintaqalar yaratish uchun belgilangan tartibda rmon fondi yerlari tarkibiga tkazilishi mifumkin. Shuningdek, rmon fondi yerlari qishloq x^o jaligi uchun korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga vaqtincha foydalanishga tuman hokimi tomonidan, rmon x^o jaligi davlat organlari bilan kelishilgan holda, ijara shartlari asosida berilishi mumkin.

Suv fondi yerlari — suv havzalari (daryolar, koilar, suv omborlari,), gidroteknika va boshqa suv x^o jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek, suv havzalarining va boshqa suv obyektlarining qir oqlari b^oylab ajratilgan mintaqalaridagi suv x^o jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilagan tartibda berilgan yerlardir.

Zaxira yerlari — huquqiy va jismoniy shaxslar egaligiga, foydalanishiga, hamda ijaraga berilmagan, mulk qilib sotilmagan barcha yerlardir. Bunday yerlar jumlasiga egalik qilish va foydalanish huquqi, ijaraga olish huquqi, mulk huquqi "Yer kodeksi"ning 36-moddasiga muvofiq bekor qilingan yerlar ham kiradi. Bu toifa yerlar, asosan, qumliklarni, botqoqliklarni, jarliklarni, to u-tosh-

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi yer turlari (2004-yil 1-yanvarga)

Yer turlari	Maydoni ming. ga	%
Haydalma yerlar	4042,7	9,7
Daraxtazorlar	337,0	0,8
Bo'z yerlar	84,5	0,2
Yaylov va pichanzorlar	21217,1	47,7
Qishloq xo'jalik yerlari, jami	25681,3	57,8
Tomorqa, bog'dorchilik va sabzavot uyushimalari erlari	682,1	1,5
Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	79,5	0,2
O'rmonzorlar, jami	2817,7	6,4
Boshqa yerlar	15149,7	34,1
Jami yerlar	44410,3	100

Ko'rinish turibdiki, O'zbekiston yerkari tarkibida mahsuldar
yerlar ulushi nisbatan kam.

O'zbekiston aholisining bir odamga to'g'ri keladigan haydalma
yerlari maydoni 0,14 ga (2004-y.) teng. Bu ko'rsatgich
AQSHda — 0,75 ga, Kanadada — 1,72 ga, Avstraliyada — 2,85 ga
va Rossiyada — 0,89 ga yerni tashkil etadi. haydalma yerlar bilan
ta'minlanish darajasining juda pastligi O'zbekistonda yer resurs-

laridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish muommosining ustuvorligini k rsatadi.

Yerdan oqilona foydalanish — xalq x jaligini, rivojlantirish manfaatlariiga maksimal mos tushuvchi va ajratilgan' maqsadlarga erishishda eng katta samaradorlikni, atrof-muhit bilan zaro optimal ta'sirni va ham foydalanish, ham ajratish jarayonlarida uni har tomonlama muhofaza qilishni ta'minlovchi yerdan foydalanish hisoblanadi.

Mamlakat yer fondi yer egaliklari va yerdan foydalanishlardan tashkil topadi. "Yer egaligi" va "yerdan foydalanish" atamalari yer tuzishda an'anaviy hisoblanadi. Eng keng ma'noli va umumiy atama — "yerdan foydalanish"dir. Eng awalo, bu yerdan foydalanishning (faoliyatning) mavjud jarayonidir. U yerdan barcha shakllarda foydalanishda z rniga ega.

Ma'lumki, yerga b lgan mulkchilik huquqi uchta elementdan tashkil topadi: egalik huquqi, foydalanish huquqi va tasarruf etish huquqi. Shu nuqtayi nazardan, yer egaligi va yerdan foydalanish huquqiy munosabatlarning ma'lum elementlari hisoblanadi. Bunda ularning huquqiy maqomi harakatdagi qonunchilik bilan aniqlanadi.

Yer tuzishda "yer egaligi" va "yerdan foydalanish" atamalari, odatda, yer tuzish obyekti — joylarda chegara belgilari bilan mahkamlangan hududiy chegaralariga va yer tuzish b yicha davlat organlari tomonidan berilgan hujjatlar asosida yer qonunchiligidagi belgilangan ma'lum huquqiy maqomga ega yer uchastkasi ma'nosida ishlatalidi.

Ta'riflashda qulaylik yaratish uchun quyidagi tushunchalar qabul qilingan:

Yer egaligi — bu mulkchilikdagi, umrbod meros qilib qoldiriladigan egalikdagi, aniq maqsadiar uchun foydalaniladigan, aniq maydoniga, joylashgan rniga, huquqiy maqomiga va joylarda belgilangan aniq chegaralariga ega yer uchastkasidir.

Yerdan foydalanish — bu aniq maqsadlar uchun doimiy (muddatsiz) yoki vaqtincha (uzoq muddatli, qisqa muddatli) foydalanishga, ijarani ham q shib, berilgan, aniq maydoniga, joylashgan rniga, huquqiy maqomiga va joylarda belgilangan aniq chegaralariga ega yer uchastkasidir.

Yer tuzish va hududni tashkil etish nuqtayi nazaridan bu tushunchalar yaqin sababi ular zlarida aniq yer uchastkalarini aks ettiradi.

Yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning (yer uchastkasining) barcha tavsiflari yer kadastrida va daviat r yxatiga olish hujjatlarida aks ettiriladi. Yer egaliklari va yerdan foydalanish chegaralari chizmalarda k rsatiladi va joyiarga k chiriladi. Mazkur yer uchastkasining huquqiy maqomi z Ichiga m ljalangan maqsadni, ruxsat etilgan foydalanishni va qonuniy egalik qilish shaklini oladi.

Ycr egaligi va yerdan foydalanish shunday obyekt hisoblanadi-ki, unda bevosita yerdan foydalaniilib, uni muhofaza qilinadi. Uning sifatiga sezilarli darajada yerdan foydalanish samaradorligi va ishlab chiqarishni yuritish bo liq b ladi.

Yer egaligi va yerdan foydalanish chegarasi — mulkdor, ega, foydalanuvchi, ijarachining yerdan foydalanishdagi huquqlarining hududiy chegaralarini ziua aks ettiruvchi, joylarda texnika vositalar yordamida aniq belgilangan chiziqdir.

Yerdan foydalanishlar chegaralari z- zidan huquqiy sharoitlarga t la mos b lishi, lekin yerdan x jaiikda foydalanish uchun noqulay boiishi mumkin.

Yer egaliklari va yerdan foydalanishlar vazifalari, huquqiy mavqelari b yicha bir-birlaridan farq qihshadi.

Zbekistonda 2004-yilda maydoni b yicha yirik qishloq x jalik korxonalari (jamoa va shirkat x jaiiklari, hissadorlik jamiyatlari, fermer x jaliklari uyushmalari, yordamchi va tajriba x jaliklari va boshq.) soni 5160, fermer x jaliklari — 42315 tani tashkil etdi.

Har qanday yer egaliklarini va yerdan foydalanishiarni tashkil etish, ularni hududda joylashtirish, uiarga zgarishiar kiritish, yerlarni yer mulkdorlari, yerdan foydalanuvchilar, xalq x jaligi tarmoqlari, tarmoqlar ichida taqsimlash x jaliklararo yer tuzish yordamida arhalga oshiriladi.

X jaliklararo yer tuzish masalalarini yechishga har xil tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillar. hududning umumiyl maydoni, uning qishloq h jaligi uchun zlashtirilganligi va keyin... lik zlashtirilish imkoniyati, yer turlari tarkibi va joylasMshi. aholi tizimi, kommunikatsiya, infratizim. ta'sir k rsamii. >; omillarning yi indisi har xil b lishi mumkin. Ular har al y^ tia lishdagi yer egaliklarini tashkil etish inikoniyalini aniqiyaydi, uUi-ning joylashtirishiga ta'sir etadi, umuman x jaliklararo Shyrdaryozistonning qaligaz (yendida foydalanish) usuilarida ^KG c..auj.

ki, u zining Ichamlari (maydoni, tarkibi va boshq.) va joylashishi b yicha yerdan eng samarali foydalanishni va uni muhofaza qilishni, ishlab chiqarishni tashkil etishni va x jalikning ijtimoiy masalalarini yechishni ta'minlaydi.

X jaliklararo yer tuzishda yer tuzish ishlari huquqiy, tadbirlar bilan bo liq. Ularning asosiyлари quyidagilar: ••

Yerlarni olish — belgilangan tartibda aniq yer uchastkasidan foydalanish huquqini (mulkchilik, egalik qilish, foydalanish, ijara) tugatishdir.

Yerlarni berish — yer uchastkasini mulk qilib, egalik qilishga, foydalanishga, ijaraga fuqaroga yoki huquqiy shaxsga berishdir.

Yerlarni ajratish - mulk qilib, egalik qilishga, foydalanishga berilgan yer uchastkasining chegaralarini joylarda belgilash b yicha yer tuzish ishlaridir.

3. X jaliklararo yer tuzishning vazifalari va mazmuni

X jaliklararo yer tuzishni tkazishda ikkita maqsad k zlaniadi. Birinchi maqsad — yerdan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni tashkil etish; ikkinchisi — ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, ya'ni hududda, uning ishlab chiqarish kuchlari xususiyatlarini hisobga olgan holda — ishlab chiqarish obyektlarini va mehnat resurslarini joylashtirish.

X jaliklararo yer tuzishni tkazishda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- yerda x jalik yuritishning barcha turlarini rivojlantirish uchun bir xil hududiy sharoit yaratish;

- yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning oqilona tizimini yaratish va takomillashtirish;

- yer tuzishda belgilangan chegaralarning joylarda tkazilishining asoslanganligini, aniqligini va dahlsizligini ta'minlash;

- qishloq x jalik ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish uchun hududiy sharoit yaratish;

- yerlardan foydalanish tartibini va shartlarini, mulk sifatida, egalik qilish uchun, foydalanishga berilgan yer uchastkalariga t lovlari va servitutlarni belgilash b yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- yer soli i va haqini belgilash, yerlarni olishdagi qishloq x jaligi ishlab chiqarishining zararini qoplash uchun ma'lumotlar tayyorlash;

— yerlarni yaxshilash va tiklashga, ularning unumdorligini oshirishga, eroziyadan himoya qilishga, rekultivatsiyalashga hamda unumdorligini tiklashning iloji y q yerlarni konservatsiyalashga qaratilgan tadbirlarni ishlash;

— yerlarni melioratsiyalashning y nalistilarini va kelajagini asoslash.

X jaliklararo yer tuzish oqilona yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni shakllantirishning, fuqarolarga, fermer x jaliklariga, qishloq x jalik korxonalariga yer ajratishning, yerni ijaraga berishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. U qishloq va xalq x jaligi uchun nafaqat yerlarni taqsimlash, balki mahsuldar yer turlarini sarflash masalalarini yechish uchun ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

X jaliklararo yer tuzish murakkab va har xil tadbirlar tizimini va yer tuzish ishlari turlarini zida mujassamlaydi. U har xil tavsifga, foydalanish va muhofaza qilish tartibiga ega barcha toifalardagi yerlarda tkaziladi.

Xalq x jaligining har bir tarmo ida yerdan har xil maqsadlar da foydalaniladi. Masalan, qishloq x jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanilsa, boshqa tarmoqlarda u ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zaruriy shari, ya'ni, zamin sifatida foydalaniladi. Shuning uchun ham, har xil tarmoqlar uchun ajratiladigan yerlar tarkibi ham har xil b lishi kerak. qishloq x jaligi uchun eng unumdar tuproqli yerlar, boshqa tarmoqlar uchun esa unumdorligi past b lgan yerlar ajratilishi kerak.

X jaiiklararo yer tuzish ikki turga b linadi:

— qishloq x jalik korxonalari va fermcr x jaliklari yer egaliklari va yerdan foydalanishlarini tashkii etish va tartibga solish;

— noqishloq x jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etish va zgartirish.

Yer tuzish amaliyotida bu b linish prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega: qishloq x jaligi va noqishloq x jalik yer egaliklari va yerdan foydalanishlari tarkibiga sifati b yicha har xil yerlar kiritilishi kerak. Qishloq x jaligi uchun unumdorlikka ega yerlar talab etiladi, boshqa tarmoqlar uchun unumdorlik talab etilmaydi, shuning uchun ularda unumdar yerlardan foydalanishiga y 1 q yilmasligi kerak.

X jaliklararo yer tuzishga respubiikamiz "Yer kodeksi"da k rsatilgan quyidagi yer tuzish ishlari kiradi:

— joyning zida ovullar, qishloqlar, posyolkalar, shaharlar, tumaniar, viloyatlarning chegaralarini belgilash;

— yerlarning joylashuvidanagi noqulayliklami bartaraf etgan holda, yer egalarining va yerdan foydalanuvchilarning, ijarachilarning va yer mulkdorlarining yangi yer uchastkalarini tashkil etish, hamda mavjud yer uchastkalarini tartibga solish loyihalarini tuzish;

— yangi tashkil etilayotgan, qayta tashkil etilayotgan qishloq x jalik korxonalari, muassasalari, hamda tashkilotlariga yer ajratib berish loyihalarini tuzish;

— korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun olib q yiladigan yerlarni ajratib berish loyihalarini tuzish;

— yer uchastkalarini naturada (joyning zida) ajratib berish, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish huquqlarini, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini, hamda yer uchastkalariga b lgan mulk huquqini tasdiqiovchi hujjatlarni tayyorlash;

— yangi yerlarni zlashtirish, qishloq x jalik yerlarini yaxshilash, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, k chkilardan, suv bosishidan, zaxlashdan, qaqrab qolishdan, zaranglashishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, radioaktiv va kimyoviy moddalar bilan ifloslanishdaii himoya qilish b yicha ishchi loyihalarini ishlab chiqish;

— barcha yerlarni r yxatga olish, hamda foydalanilmayotgan, samarasiz foydalanilayotgan yoki belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan yerlarni doimiy aniqlab borish;

— yerlarni resurs jihatdan baholash, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan yer tuzish hujjatlarini ishlab chiqish:

— yerlarni baholash tadbirlarini tkazish.

Bu ishlarning har biriga yer tuzish loyihasining maMum tipi, ulardan ayrimlariga esa (masalan, noqishloq x jalik maqsadlaridagi yerdan foydalanishlarni tashkil etishga) — joylashtirilayotgan obyektning tavsifiga. bo liq holda, hur xil mazmunli qator loyihalar mos keladi.

X jaliklararo yer tuzish yerdan foydalariishni va uni muhofaza qilishni ma'lum ishlarni bajarish y li bilan tashkil etadi. Bunday ishlarning bir qismiga "chegaralash" ataimasini ham q llash mumkin.

Chegaralash — bu yagona davlat tizimi b yicha chegaralarni belgilash (tiklash, joylarda zgartirish, texnik va huquqiy rasmiylashtirish) va ma'muriy — hududiy tuzihnalarning va boshqa

obyektlarning maydonlarini aniqlash b yicha yer tuzish ishlardir. U faqt obyekt chegaralariga taalluqli; boiib, uning hududining ichki tuzilishi bilan bogiiq emas.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda x jaliklararo yer tuzishda yerlarning m ijallangan maqsadi, toifalari, obyektning yer maydonlari bilan ta[^]minlanishi, uni k rilayotgan' hududda joylashtirishning maqsadga muvofiqligi belgilanadi. Shu bilan birga, yer bilan bogiiq boshqa ishlab ghiqarish vositalari ham joylashtiriladi, ya'nii yerda u bilan birga faoliyat k rsatadigan ishlab chiqarish vositalarini hududiy tashkil etish amalga oshiriladi. Yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni t ri shakllantirish va joylashtirish ayniqsa, qishloq x jalik ishlab chiqarishiga, uning samaradorligiga, hududni ichki tashkil etishga, resurslarni va atrof-muhitni muhofaza qilishga katta ta'sir k rsatadi.

X jaliklararo yer tuzish obyeloiari korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, yer fondlari va boshqa yerlarini tuzish zarur boigan obyektlar. x jaliklar, x jaliklar guruhlari (korxonalar, birlashmalari, ma'muriy tumarilar, aholi yashash joylari, zlashtiriladigan hududlar) hisoblanajdi.

Qishloq x jalik va lioqishloq x jalik yer egaliklari va yerdan foydalamishlarida barclW vaziyatlarda x jaliklararo yer tuzish loyihasining umumiy maznijiuni quyidagi asosiy masalalarni ishlashdan iborat boiadi: obyekt t/agidagi yer uchastkasi maydonini aniqlash; uchastkani hududda j[^]ylashtirish; uchastka tarkibiga yer turlarining zarur maydonlai/ini kiritish; uchastkaga maqsadga muvofiq shakl berish; uchastkaichegaralarini joylashtirish.

/ Nazorat savollari

- (?)
1. X jaliklararo yer tuzish tushunchasiga tavsif bering.
 2. "Yer egaligifii (yerdan foydalanishni) tashkil etish" atamasi qanday tushunchalarni z ichiga oladi?
 3. X jaliklararo; yer tuzishni tkazish zarursitini qanday sabablar (omillar) keljтирib chiqaradi?
 4. X jaliklararb yer tuzish qanday tamoyillarga (prinsiplarga) mos tarzda j tkaziladi?
 5. zzbekiston¹ Respublikasi yer fondiga nimalar kiradi? Uning tarkibiy qisrnlarini qisqacha tavsiflab bering.
 6. "Yerlarni olish", "yerlarni berish", "yerlarni ajratish" tushunchalari nim[^]larni bildiradi?
 7. X jaliklararbo yer tuzishni tkazishda qanday vazifalar bajariadi?

IV bob.

X JALIKLARARO YER TUZISH JARAYONI VA UNI TKAZISHNING ASOSLARI

1. Yer tuzish jarayoni

X jaliklararo yer tuzish yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tashkil etish va tartibga solish masalalarini yechib, katta hududlarning tashkil etilishiga sezilarli zgarishlar kiritadi. X ja-liklararo yer tuzish b yicha asosiy ishlar, odatda, x jaliklar guruhini qamrab olgani va k pchilik hoilarda ma'muriy tumanlar chegaralarida amalga oshirilganligi sababli, x jaliklararo yer tuzish tuman yer tuzish chizmalari bilan yagona texnologik va axborot aloqasida tkaziladi.

Zamonaviy sharoitlarda tuman yer tuzish chizmasiga yer fondini, yer egaliklari va yerdan foydalanishlar ahvolini, yerga b lgan talablarni rghanish asosida x jaliklararo yer tuzishga taalluqli quyidagi masalalar kiritilishi mumkin:

- yerlar zaxiralarini aniqlash;
- yer fondini qayta taqsimlash b yicha tavsiyalar;
- tuman agrosanoat majmuasi obyektlarini va uning infratizimi joylashtirish;
- tuman hududini tashkil etish; maxsus yer fondlarini ajratish, yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tartibga solish, fermer x jaliklarini, jamoa bo larini va boshqa obyektlarni joylashtirish uchun yer massivlarini ajratish;
- shahar va qishloq aholi yashash joylarining chegaralarini aniqlash;
- maxsus q riqlanadigan va shu kabi hududlar chegaralarini aniqlash va belgilash.

Tuman yer tuzish chizmasi va unga mos tarzda ishlangan k rsatkichlar x jaliklararo yer tuzish loyihaiarini ishlash uchun topshiriqni tayyorlashda asos b lib xizmat qiladi.

X jaliklararo yer tuzish davlat organlarining (hokimiyatlarining), mahalliy z- zini boshqarish organlarining qarorlari yoki yer mulkdorlari, egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari, hamda yer tuzish organlarining tashabbusi b yicha va manfaatdor fuqarolar va huquqiy shaxslar ishtirokida tkaziladi.

X jaliklararo yer tuzish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat b ladi: tayyorgarlik ishlari; loyihami tuzish va asoslash, loyiha

hujjatlarini k rib chiqish va tasdiqlash; loyihani joylarga (natura-ga) k chirish; yer tuzish bilan bo liq hujjatlarni tayyorlash, yerdan foydalanish yoki unga egalik qilish huquqini beradigan davlat aktlarini (dalolatnomalarini) berish; x jaliklararo yer tuzish loyihasini, yer mulkdorlari, egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijara-chilar tomonidan loyihaning bajarilishi ustidan mualliflik nazoratini amalga oshirish.

2. Tayyorgarlik ishlari

X jaliklararo yer tuzish loyihasini tuzish, asoslash va rasmiy-lashtirish uchun loyihalash obyektiga va mazkur yer tuzishning xarakteriga va vazifalariga mos tushadigan, zarur va yetarli hajm-dagi tayyorgarlik ishlari tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlari jarayonida quyidagi masalalarni yechish kerak:

— x jaliklararo yer tuzish qatnashchilari tarkibini aniqlash, ular yer tuzish ishlari tkaziladigan hududda joylashgan x jaliklar, tashkilotlar, korxonalar va muassasalar b iib, yer tuzishdan manfaatdordirlar;

— x jaliklararo yer tuzishni tkazish uchun zarur boigan hujjat va maiumotlarni yigish, tayyorlash va rghanish;

— x jaliklar yerlarining ahvolini rghanish va x jaliklararo yer tuzishni tkazish zarurati va sabablarini aniqlash;

— yer tuzish tkazilayotgan x jaliklarning taklif va istaklarini aniqlash va rghanish, ularni bajarish imkoniyatlarini va lozimligini aniqlash, yer egalari va yerdan foydaianuvchilarning fikr va istaklari bir-birlariga mos kelmaganda umumiyligi uikliflar va tadbir-larni ishlab chiqish;

— loyiha tuzish b yicha topshiriqni ishlab chiqish, uning asosiy k rsatkichlari b yicha manfaatdor x jaliklar, tashkilotlar va muassasalar bilan kelishish va belgilangan tartibda tasdiqlash.

Tayyorgarlik ishlari kameral yer tuzish tayyorgarligi va dalada oikaziladigan izlanishlardan iborat boiadi. Ular asosida loyihalash uchun topshiriq, keyin loyihaning zi ham tuziladi.

Kameral yer tuzish tayyorgarlik ishlari loyihalash * obyektiga chiqishgacha bajariladi. U x jaliklararo yer tuzish qatnashchilari tarkibini belgilash yoki aniqlashdan boshlanadi. Ularning soni ikkitadan ntagacha, hattoki ayrim hollarda yuztdan ham oshib ketishi mumkin. Bu ishlar x jaliklararo yer tuzish qatnashchilan

r yxatini tuzish bilan yakunlanadi. Bu reja-xarita materiallari talab etiladigan hududni aniqlab beradi.

Undan keyin quyidagi hujjat va ma'lumotlar yi iladi hamda rghaniladi. Ular:

— x jaliklararo yer tuzishni tkazish tashabbuskorlari tornonidan taqdim qilingan hujjatlar (iltimosnama, qarorlar, davlat muassasalari buyruqlari va boshq.);

— tumanntng, mavjud x jaliklarning, x jaliklararo birlashmalarning va yangi x jaliklarning kelajakdagи rivojlanishi va ular oldida turgan vazifalar haqida ma'lumotlar;

— tuman va viloyat yer tuzish chizmalarini (sxemalari);

— yerdan foydalanish va yerga egalik qilish huquqini beruvchi hujjatlar (davlat aktlari);

— x jaliklar va ayrim yer b lakkari maydonlarining yer hisobi va ularni baholash b yicha ma'lumotlar;

— x jaliklar yer maydonlari planlari, x jaliklararo yer tuzish tkaziladigan hudud umumiylarining plani (x jaliklararo yer tuzish loyihasini ishlashga mos masshtabda);

— oldingi yillarda tkazilgan yer tuzish ishlari natijalari;

— tuproq, geobotanika, melioratsiya, y l, suv x jaligi va boshqa izlanishlar, qidiruv ishlari natijalari;

— melioratsiya, irrigatsiya, yoi qurilishi va boshqa loyihalar (chizmalar);

— x jaliklar uchun belgilangan suv limiti va uni oshirish imkoniyatlari;

— yer tuzish ishlari tkazilayotgan x jaliklarning iqtisodiy k rsatkichlari;

— x jajik markazlari va aholi yashash joylari, yakka joylashgan ishlab chiqarish markazlari va chorvachilik fermalari t risida ma'lumotlar;

— qishloq x jalik ekinlarining hosildorligi va chorva mollarning mahsuldorligi t risidiagi oxirgi 3—5 yildagi ma'mumotlar;

— yer talab etadigan obyektlar loyihalari va chizmalar;

— maxsus qo'riqlanadigan hududlar (q riqxonalar, tabiat, ma'daniyat yodgorliklari, tarixiy-madaniy obyektlar va boshq.)

• joylashishi t risidiagi ma'lumotlar;

— suv muhofaza mintaqalarining, boshqa muhofaza qilinadigan hududlar va ularda yerdan foydalanish tartiblari t risidiagi materiallari.

Yi iladigan hujjat va ma'lumotlarning turlari, mazmuni, haj-

mi va aniqlik darajasi x jaliklararo yer tuzish oldiga q yilgan vazifalarga va loyiha ishlarining hajmiga qarab aniqlanadi. Bu materiallarning barchasi rasmiy boiishi kerak.

Bu hujjatlar va maiumotlar viloyat va tuman rejalash, qishloq va suv x jaligi boshqarmalaridan, yer kadastro, yer tuzish va boshqa tashkilotlar hamda muassasalardan yi iladi.

Tayyorlanadigan reja-xarita materiallari masshtablari loyiha qamrab oladigan maydonga, yer tuzish xarakteri va mazmuniga, yer egaliklari va yerdan foydalanishlar Ichamlariga, obyekt joylashgan mintaqaga, yerlarning vazifalariga va boshqa sharoitlarga bogiiq holda belgilanadi.

Loyiha rejasi (plani) nafaqat yetarli darajada mukammal va aniq, balki ishslash uchun qulay, ixcham boiishi kerak (odatda, 1:10000, 1:25000 masshtablarda).

Dala yer tuzish izlanishlari loyiha ishlarining asoslangan va t ri yechimlarini topish uchun tkaziladi. Uning lozimligi va hajmi kameral tayyorgarlik davrida yi ilgan hujjat va maiumotlarni rganish va taxlil qilish natijasida belgilanadi. Bunday izlanishlar, yangi x jaliklar tashkil boiayotganda va mavjud x jaliklar qayta tuzilayotganda butun x jalik maydonlarida, agar x jaliklar yer maydonlaridagi kamchiliklar tugatilayotgan bois, faqat yer tuzish ishlari tkazilayotgan yerlardagina olib boriladi.

Dala izlanishlari loyiha instituti mutaxassislari tomonidan, x jalik mutaxassislari bilan birgalikda tkaziladi. Lozim boigan hollarda izlanishlarda tuman hokimiyatining qishloq va suv x jaligi boshqarmasi mutaxassislari ham qatnashishi mumkin.

Dala izlanishlari davrida:

— chegara va chegara belgilarining saqlanishi, mavjud yer maydonining huquqiy yer maydoniga, yer hisobi va reja-xarita hujjatlari maiumotlariga mosligi aniqlanadi;

— yer tuzish ishlari tkaziladigan yerlar tavsifnomasi (tupro i, refevi, simlik dunyosi) va ishlab chiqarishda foydalanishshi, tuproq unumdorligi, qishloq x jalik yerlarining hosildorligi aniqlanadi;

— joyida qishloqlar, ishlab chiqarish markazlari, suv manbarlari, asosiy yoilar va yoi inshootlari, boshqa qurilish va inshootlar, bogiar, uzumzorlar, tutzorlar, ihota daraxtlari va eroziyaga qarshi inshootlar k rib chiqiladi;

— qayta taqsimlanayotgan yerlarning qishloqlar, ishlab chiqarish markazlari, asosiy yoilar, suv inshootlari va boshqalar bilan bogiiqligi aniqlanadi;

— almashishga yoki berishga tayyorlanayotgan yer maydonlaridagi foydalanilmagan xarajatlar, kapital xarajatlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, mevali va mevasiz daraxtlar, yerni, suvni muhofaza qilish inshootlari va ihota daraxtlari, dala shiyponlari, chorva mollari uchun yozgi lagerlar va boshqa inshootlar, yoilar va y 1 inshootlari, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, artezian va boshqa quduqiar, k llar, gidrotexnika inshootlari, nasoslar, ekinlar, ekinlarga berilgan ma'danli itlar va boshqalar uchun qilingan xarajatlar aniqlanadi;

— yer tuzishni tkazish b yicha x jaliklarning taklif va istaklari aniqlanadi.

Katta gidrotexnika inshootlari va sanoat korxonalariga yer ajratish loyihasi ishlanayotganda yuqoridagilardan tashqari yana:

— ajratilayotgan yerlardan k chiriladigan aholini joytashtirish mumkin b lgan x jaliklar aniqlanadi;

— olinayotgan yerlar rnini qoplash uchun yangi yerlar izlab topish, yangi x jaliklar tuzish va unga yangi korxona uchun olinayotgan yerning aholisini k chirish imkoniyatlari izlanadi;

— ustki unumdar qatlamini olish zarur b lgan yerlar maydoni aniqlanadi;

— oldin ajratilgan yerkarning foydalanishi va vaqtincha foydalanilgan yerkarni rekultivatsiyalash ishlarining ahvoli tekshiriladi.

Dala ishlanishlari natijalari b yicha har bir x jalikda dalolat-noma va yer tuzish izlanishlari natijalari tushirilgan x jalik yerlari rejai tayyorlanadi.

tkazilgan kameral tayyorgarlik va dala izlanishlari asosida loyiha muallifi tuman mutaxassislari bilan birgalikda x jaliklararo yer tuzishni tkazishga topshiriq ishlab chiqadi.

Loyihalash uchun topshiriq 1 nda, iqtisodiy k rsatkichlar va boshqa axborotlar bilan ortiqcha t 1 azilmagan, yer tuzishda qatnashadigan hamma korxonalar va tashkilotlar bilan kelishilgan b lishi kerak, u loyihami tasdiqlaydigan hokimiyat tomonidan tasdiqlanadi.

Topshiriq ikki guruh masalalarini z ichiga oladi.

Dasturli masalalar: obyekt nomi, loyihalashning maqsadi va vazifalari, buyurtmachi va loyiha tashkiloti orasidagi munosabatlar tavsifi, ishlarni bajarish muddatlari, loyihaviy hujjatlar tarkibi, reja-xarita materiallari masshtabi.

Me'yoriy-bashoratlash masalalari: Loyihaviy vazifalarni yechishning yer qonunlari, hokimiyatning mahalliy organlari

qarorlari va buyurtmachi talablaridan (loyihalash shartlari) kelib chiqadigan tamoyillari; buyurtmachining loyiha mazmuni b yicha tavsiyalari (x jaliklar ixtisosliklari, obyektning joylashishi, infratizim obyektlarining — suv manbalari, y llar va shu kabilarni joylashishi); hisob-kitoblar me'yorlari va texnik-iqtisodiy asoslashlar (yer berish, qishloq x jalik ekinlari hosildorligi, chorva mollari mahsuldarligi va boshq.).

Loyihani ishlash uchun topshiriqning namunaviy shakli va mazmuni quyidagidek b ladi.

Titul vara i: topshiriqnini kim tasdiqlagani, loyihaning nomi; kimlar bilan kelishilganligi — shaxslar, tashkilotlar, ularning imzolari va muhrlari; Yer resurslari Davlat -q mitasining tuman xizmati boshli ining imzosi, vaqt, muhr.

Topshiriq mazmuni:

- loyihalash uchun asos;
- buyurtmachi va loyihami;
- loyihalashning vazifalari (nima qilish, loyihalash obyektlari qayerda, qanday yerlarda joylashgan, ularning ixtisosliklari, loyihani texnik-iqtisodiy asoslash);
- boshlan ich ma'lumotlar — x jalikning chegaraviy oichamlari, ekinlarning hisoblangan hosildorligi, chorva mollarining mahsuldarligi va boshqa x jalik faoliyatining iqtisodiy k rsatkichlari;
- boijak yer mulkchiligi shakllari;
- qishloqlarni joylashtirish;
- hududni muhandislik jihozlash: irrigatsiya, melioratsiya tarmoqlarini, yoilarni qurish, suv ta'minoti, elektr uzatish (hajmlari) b yicha tadbirlar;
- birlashish aloqalari (mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash, texnikadan birgalikda foydalanish va sh. . b yicha);
- tabiatni muhofaza qilish tadbirleri;
- loyiha tarkibi,- reja masshtabi, majburiy chizmalar, yozma qismining mazmuni, loyiha xujjalari nusxalarining soni.

Xulosa: buyurtmachi va loyiha tashkiloti vakillarining imzolari (lavozimlari, muhri, vaqt k rsatilgan).

Topshiriqning mazmuni loyihalashning xarakteriga bogiiq holda, boshqacha ham boiishi mumkin (masalan, noqishloq x jalik yerdan foydalanishlarini loyihalashda).

Loyiha ishlashga topshiriq dala izlanishlari dalolatnomasi va chizmasi bilan birga tayyorgarlik ishlari hujjatlarini tashkil qiladi.

70 Keyin topshiriq va tayyorgarlik vaqtida belgilangan umumiy vechimlar asosida x jaliklararo ver tuzish lovihasi ishlanadi.

3. Loyihani k rib chiqish va tasdiqlash

X jaliklararo yer tuzish ishlari natijasida ilmiy asoslangan loyiha tuziladi. Loyiha tarkibiga quyidagilar kiradi: chizma qism — loyiha rejasi va boshqa kerakli chizmalar; yozma qism — loyihaning tushuntirish xati, iqtisodiy va huquqiy asoslash q yicha ma'lumotlar va hujjatlar hamda x jaliklarning yer turlafi maydonlari k rsatilgan yer eksplikatsiyasi.

Loyiha har tomonlama chuqur asoslangan b lishi va huquqiy me'yorlarga mos kelishi kerak.

X jaliklararo yer tuzish loyihalarini huquqiy kuchga kiritish (ularni k rib chiqish, kelishish va tasdiqlash) quyidagi tartibda olib boriladi.

Loyihaviy yechim barcha manfaatdor yer egalari, mulkdorlari, yerdan foydalanuvchilar va tashkilotlar bilan oldiniga tayyorgarlik ishlari davrida, keyin loyihalashga topshiriqni tayyorlashda va ni hoyat loyihaning oxirgi yechimini ishtashda kelishiladi.

Loyihachilar loyiha hujjatlarini tasdiqlash t risidagi qarorni tayyorlashadi va uni loyiha bilan birga tuman yer tuzish xizmatiga berishadi.

Tuman yer tuzish xizmati loyiha tavsiyalarining asoslanganligini va ularning harakatdagি qonunlarga mosligini tekshiradi.

Tuman yer tuzish xizmati qarorni loyiha materiallari va z xulosasi bilan birga tuman hokimiga tasdiqlashga beradi.

X jaliklararo yer tuzish loyihalari viloyat hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarga yer ajratib berish loyihalari zzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi viloyat, tuman va shaharlar hokimlari, posyolka, qishloq va ovullarning zini-zini boshqarish organlari tomonidan, ularning vakolatlari doirasida tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan loyiha joylarga k chiriladi.

4. Loyihani joylarga (naturaga) k chirish

Loyihani joylarga k chirish x jaliklarning loyihalanayotgan chegaralarini texnik talablarga javob beradigan aniqlikda yerga k chirishdan iborat. Joylarda chegaralar yer tuzuvchi mutaxassis tomonidan, x jalik va q shni x jaliklar vakillari ishtirokida belgilanadi.

Bu ishlarni tkazish uchun ishchi chizma tuziladi. Unda

chizma tarzda va yozuvlar bilan dala sharoitidagi ishlar uchun zarur barcha elementlar k'rsatiadi:

- joylarda m'ljal olish uchun tasvirlar;
- burchaklar va chiziqlarni lchashni bajarish uchun geo dezik maiumotlar;
- yurish y'nalishlari (chiziqchalar bilan), asboblarni va tayoqchalarni (vexalarni) matish joylari;
- chegara belgilarini rnatish joylari.

Loyihani joylarga rejada yaxshi va aniq belgilangan tasvir elementlari (kanallar, y'llar, daryochalar va sh. .) b'yicha ham k'chirish mumkin. Ochiq tasvir elementlari y'q joylarda teodolit y'llarini tkazish kerakboiadi.

Teodolit yoilarini tkazish uchun geodeziya maiuinotlari teskari geodeziya masalasini yechish yoii bilan hisoblanadi. Har bir yer egaligi va yerdan foydalanish davlat geodeziya tarmogiga bogiangan boiishi kerak.

X'jaliklar hududlari chegaralari belgilangan tartibdagi chegara belgilari bilan bir-biridan ajratiladi. Chegara belgilari temir-beton-dan, yo'chdan yoki toshdan tayyorlanishi mumkin.

Bir x'jalikning chegaralarida bir xil chegara belgilari q'yiishi kerak. Chegara belgilari bir-biridan k'rinadigan, lekin 1000 metr-dan uzoq boimagan masofada, su orilmaydigan choi hududlari-da esa 2000 metrdan uzoq boimagan masofada rnatiladi.

Agar yerda chegarani bogiab tkazish uchun biror tabiiy yoki sun' My element boimasa, chegara b'ylab yer egat qilib, 20 sm dan kam boimagan chuqurlikda haydab q'yiladi.

Loyihani joyiga k'chirish uchun tayyorlangan ishchi chizma yangi chegaralarni kerakli anqlikda yerga tushirish imkonini berishi kerak. X'jalik chegaralari davlat geodeziya tarmoqlariga bogianadi. Joylarga k'chirilgan xo'jaliklar chegaralari yer tuzilayotgan x'jalik vakillariga k'rsatiladi va topshiriladi. Loyihani joylarga k'chirish dalolatnomaga bilan tasdiqlanadi. Dalolatnomada chegaralarning yerdagi mi ta'riflangan b'ladi. Unga belgilangan chegaralarning aniq rinlari (koordinatalar) k'rsatilgan chizma q'shimcha qilinadi.

Loyiha joyga k'chirib b'lingandan s'ng va x'jalik chegaralari belgilangandan keyin, x'jalikka yerdan foydalanish yoki unga egalik qilish huquqini beruvchi Davlat dalolatnomasi beriladi.

5. Yerga b Jgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish va berish

Yer uchastkasiga b lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar "Yer kodeksi"ning 33-moddasida keltirilgan. Ular — yer tychastkasiga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati, yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati, yer uchastkasiga b lgan mulk huquqini beruvchi davlat orderi, yer uchastkasi ijarasi shartnomasi yoki yer uchastkasidan muddatli foydalanish shartnomasidir. Bu hujjatlarda yer uchastkasi qaysi huquqqa asosan berilayotganligi, yer uchastkasidan foydalanishning belgilangan maqsadi, uni zlashtirish muddatlari, yer uchastkasini saqlash vazifalari va servitutlar k rsatiladi.

Huquqiy va jismoniy shaxslaming yer uchastkalariga b lgan huquqlari davlat r yxatiga olinishi kerak.

Yer uchastkasiga boigan huquqning davlat r yxatiga olinanligi t risidagi guvohnoma shakli Vazirlar Mahkamasining 1998-y. 31-dekabrdagi 543-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Yer uchastkalarini davlat r yxatiga olish va uni tkazishda asosiy huquqlar va zaruriy rnataladigan huquqlarni tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar va ma'lumotlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- I. Yerga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi Davlat dalo-latnomasi.
2. Yerdan doimiy foydalanish huquqini beruvchi Davlat dalo-latnomasi.
3. Yerdan umrbod foydalanish va meros qilib qoldirish huquqini beruvchi Davlat dalolatnomasi.
4. Yer uchastkasidan muddatli (vaqtincha) foydalanish haqida shartnoma.
5. Yer uchastkasiga ijara shartnomasi.
6. Meros huquqi haqidagi guvohnoma.
7. Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining, ular huquqlari doirasidan kelib chiqib qabul qilgan farmoyishlari (qarorlari).
8. Sud qarorlari.
9. Yer uchastkasini kim oshdi savdosida yoki tanlov asosida olganligi haqidagi guvohnomasi.
10. Yer uchastkasiga undagi savdo va maishiy xizmat obyektlari bilan birgalikda xususiy lashtirilganda b lgan huquqga davlat orderi.

- II. zbekiston Respublikasida faoliyat k rsatayotgan diplomatik vakolatxona va xalqaro uyushmalarning egallab turgan yer

astkalari bilan imoratlariga ega bo'lgan mulklarni olganligi, ganligi haqidagi shartnoma (guvohnoma).

12. Xorijiy huquqiy va jismoniy shaxslarning qonun hujjatlari sida yashash joylarining yer uchastkalari bilan oldi-sotdi (mulk quqini olganligi) shartnomasi.

Yer tuzish xizmatini k rsatish shartnomasida bajariladigan ishlarning turlari va muddatlari, qishloq x jalik korxonasing, fermer x jalogining va loyiha tashkilotining loyihada k zlangan har xil tadbirlarni bajarishdagi huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari belgilanadi.

Yer tuzish xizmatini ko'rsatish bo'yicha ishlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

— qishloq xo'jalik korxonalari, xo'jalikda ichki bo'limlar, fermer xo'jaliklari mutaxassislariga loyihalarni amalga oshirish va yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari bo'yicha, ularga ilg'or tajribalar, bu sohadagi fanning oxirgi yutuqlari to'g'risidagi va ularni joriy etish bo'yicha tavsiyalarni qo'shib, maslahat berish;

— loyiha tashkiloti va qishloq xo'jalik korxonasi birgalikda qishloq xo'jalik korxonasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalarini, xo'jalik yuritish, dehqonchilik tizimlarini ishlash;

— qishloq xo'jalik korxonasiga, fermer xo'jaligiga har xil iqtisodiy masalalarni yechishda yer baholash ishlari natijalaridan foydalanish; qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda; pichanzor va yaylovalmashishlarni joriy etishda va ulardan foydalanishni tashkil etishda; dalalar tarixi kitobini, ishchi uchastkalar pasportlarini, yer kadastri kitobini va yeriarning grafik hisobini yuritishda; yerlarni meliorativ va tabiatni muhofazalash bo'yicha yaxshilashning ishchi loyihalarini tuzish uchun topshiriqlar tayyorlashda, bu loyihalarni ekspertizadan o'tkazishda hamda melioratsiyalangan yerlarni foydalanishga qabul qilishda yordam ko'rsatish;

— qishloq xo'jalik korxonasining yoki fermer xo'jaligining yeralini noqishiqliq xo'jalik maqsadlari hamda xo'jalikdag'i ichki qurilishlar uchun ajratish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

— xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasiga joriy o'zgarishlar va aniqliklar kiritish;

— gumusning o'zgarishi, tuproqlarning unumdar qatlamin yo'qotish bo'yicha zarur hisoblashlarni va zarur dala izlanishlarini hamda analistik ishlarni o'tkazish bilan tuproqlar unumdonligi o'zgarishini nazorat etish;

— zarur xarita materiallarini tayyorlash;

— har xil xo'jalik uchastkalarining joylarida yonalishlarini tiklash;

— yer tuzish loyihasiga aniqlik kiritish; uchastkalarlarni joylarga ko'chirish.

Qishloq xo'jalik korxonasi loyiha tuzish xizmatini 1970-yili loyihani amalga oshirish bo'yicha qo'shib, qishloq xo'jalik korxonasi korxona bo'lib, 1971-yili tashkil laydi, tadbirlarning Utimoly, Moshkino, Tashkent shahrida joylari aniqlaydi, kelasi yill uchun loyiha tuzish xizmatini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar ishlaydi.

Nazorat savollari

1. X jalikda ichki yer tuzish loyihasi qayerda krib chiqiladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?
2. Loyiha hujjatlarining chizma va yozma qismlari z ichiga nimalarni oladi?
3. Loyihaning loyihaviy chizmasi va hisob-tushuntirish xati (bay-onnomasi) qanday rasmiylashtiriladi?
4. Tayyorlangan loyiha hujjatlari kimga beriladi?
5. X jalikda ichki yer tuzish loyihasi qanday amalga oshiriladi?
6. Mualliflik nazorati nima va kim uni amalga oshiradi?
7. Qishloq x jalik korxonasiga yer tuzish xizmati krsatishning mazmuni nimalardan iborat?

To‘rtinchib o‘lim. YER TUZISHDA ISHCHI LOYIHALAR

**XXI bob.
ISHCHI LOYIHALARNI TUZISHNING VAZIFALARI,
MAZMUNI VA USULLARI**

1. Ishchi loyihaning vazifalari va mazmuni

Ishchi loyiha — bu o‘z ichiga tasfiiliy-hududiy, ekologik, ijtimoiy va texnik-iqtisodiy yechimlarni va qurilishi kapital xarajatlarni talab etadigan aniq lokal obyektlar bo‘yicha smeta-moliya hisob-kitoblarini oladigan, yozma va chizma materiallardan iborat hujjatdir.

Yer tuzishda ishchi loyihalarning asosiy vazifalari yerlarni muhofazalashga va ularning unumdorligini oshirishga, qishloq xo‘jalik yerlарining hududiy joylashishini yaxshilashga va ishlab chiqarish infratizimi elementlarini yaratishga, buning uchun zarur pul-moddiy, mehnat, mexanizatsiyalashgan resurslarni hisoblashga yo‘naltirilgan to‘la muhandislik, agrotexnik va texnologik aniq tadbirlar hisoblanadi. Ayniqsa, belgilangan tadbirlarni amalga os-hirish uchun smeta-moliya xarajatlarini va ularning texnik-iqtisodiy samaradorliklarini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Ishchi loyihalarni tuzish uchun asos bo‘lib, oldin tuzilgan tuman yer tuzish chizmalari, xo‘jaliklararo va xo‘jalikda ichki yer tuzish loyihalari hamda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha boshqa bashoratlash-loyiha hujjetlari, aniq dala izlanishlari va qidiruvlari materiallari xizmat qiladi.

Chizmalar va xo‘jaliklararo va xo‘jalikda lohki yer tuzish loyihalari bilan kuchli o‘zaro aloqada bo‘lib va ularning yahud-qurishi davomi hisoblanib, ishchi loyihalar tarkibi ma’lum. Yer tuzishda judayam ahamiyatli principial farqlarga ega. O‘sasini obyektlarining yerdan foydalanishning qurilishi, shuningdek, tuzishda maydoni bo‘yicha nibratan kichikliklari, qurilishda muddatining qisqaligi (bir-ikki yil); shuqur va boshqa.

nishlari, hududni rghanish va yirik masshtablardagi topografik tasvirga olish; tadbirlar va loyihalash obyektlari turlari b yicha asoslangan smeta-moliya hisob-kitoblari.

Ishchi loyihalar tasdiqlangan topshiriq va loyihalash uchun texnik sharoitlar asosida, dala izlanishlari materiallari tahlilini hisobga olib va harakatdagi davlat standartlariga, qurilish me'yollar va qoidalariga, tarmoqlarning me'yoriy hujjatlari mos tarzda, fan va texnika yutuqlaridan maksimal foydalanib, namunaviy yechimlarni va maqsadga muvofiqligi amaliyatda tasdiqlangan loyihalaridan takror foydalanishni maksimal qoilab tuziladi.

Ishchi loyihalarni tuzishda quyidagi tamoyillarga rioya qilinadi:

— tuzilgan yer uchastkasidan hamda loyihalash obyekti atrofidagi yerlardan oqilona foydalanish va uni muhofazalash uchun eng yaxshi sharoitlar yaratish;

— ishchi loyihada ishlanayotgan yechimlarni yer tuzish chizmalarida, x jaliklararo va x jalikda ichki yer tuzish loyihalarida belgilangan tadbirlar bilan kelishtirish;

— ishlanayotgan tadbirlarning muhandislik, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik asoslanganligi va ularning samaradorligi;

— qishloq x jaligida foydalishga yangi yarlarni ekologik jihatdan mumkin b lgan darajada zlashtirish;

— qishloq x jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun uchastkaning maksimal maydonidan foydalanish; noqishloq x jalik zaruratlariga yarlarni minimal sarflash;

— ishlarni bajarishning il or texnologiyalarini joriy etish.

2. Ishchi loyihalashning obyektlari va bosqichlari

Yer tuzishda ishchi loyihalashning obyekti sifatida, odatda, hududida u yoki bu tadbirni tkazish belgilangan aniq x jalik uchastkasi, kontur, yer turi xizmat qiladi. Eng katta samaraga ishchi loyiha obyekti sifatida daraxtzoqlar va yer massivi, almashlab ekish, dala, yaxshilanishi kerak boigan yaylov va pichanzor uchastkasi va sh. . xizmat qilgan vaziyatlarda erishiladi.

Ishchi loyihalarni ishlash amaliyotida loyihalash obyektlari k proq hududning muhandislik jihozlanishini ta'minlaydigan x jalikning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratizimi elementlari bo'jadi. Ularga, birinchi navbatda, x jalikdag'i ichki yoilar, assosiy poda yoilar, dala shiyponlari, ihota va boshqa turlardagi himoya

o'rnmon polosalari, eroziyaga qarshi inshootlar va melioratsiya tarmog'i elementlari kiradi.

Ishchi loyihani ishlash amalga oshiriladi:

— bir bosqichda, texnik jihatdan murakkab bo'lmagan, bajarilish muddati ikki yildan oshmaydigan tadbirlar uchun, bajariladigan ishlarning to'la hajmi qiymatining yig'ma smeta hisob-kitoblari bilan;

— ikki bosqichda, — oldin yer tuzish loyihasi qiymatining yig'ma smeta hisob-kitobi bilan, keyin murakkab obyektlar va tadbirlar uchun smetalar bilan ishchi hujjatlar.

Loyihaning bosqichligi ishlar turlari va hajmidan, ishlanayotgan tadbirlarning murakkabligidan, ularni bajarish muddatlarining me'yoriy uzunligidan, pudratchi tashkilotlarning quvvatidan, ularning tadbirlarni belgilangan muddatlarda bajarish bo'yicha imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

Bir bosqichli ishchi loyiha, odatda, oldin tuzilgan yer tuzish loyihasida belgilangan tadbirlarga hamda bajarish zarurati yer tuzish loyihasini amalga oshirish jarayonida (yoki keyinroq) aniqlangan, uni sezilarli tuzatishni yoki qayta ishlashni talab etmaydigan tadbirlar uchun tuziladi. Ularga masalan, suvlarni to'xtatuvchi tuproq ko'tarmalarini qurish, jariklarni yassi-lashtirish, tikroq qiyaliklarni terrasalash va boshqalar kiradi.

Ikki bosqichli loyihalashda, avvaliga, yer tuzish loyihasi butun obyektga yoki navbatlarga bo'lingan ish hajmiga ishlanadi. Keyin yer tuzish loyihasida amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar va obyektlarga ularni bajarishning har ikki yiliga navbat bo'yicha ishchi hujjatlar tuziladi. Birinchi navbatning ishchi hujjatlari yer tuzish loyihasi tarkibiga kiritiladi. Joriy navbatni bajarish jarayonida yer tuzishning keyingi navbatiga ishchi hujjatlar tuziladi va sh.o'. Masalan, xo'jalikda ichki yer tuzishning kompleks loyihalarida mollarni boqish, daraxtlarni ekish uchun doimiy sug'oriladigan uchastkalar ajratiladi, ihota daraxtlari polosalari va boshqalar loyihalanadi. Bu uchastkalarning keyingi ichki tuzilishi, ulardan foydalanish texnologiyalari va ularni tashkil etish, buning uchun zarur mexanizmlar va inshootlar, aniq smeta hisob-kitoblariiga ega maxsus ishchi loyihalarda aks ettiriladi. Maxsus loyhalar zarurat tug'ilganda moliyaviy imkoniyatlarni hozir tuziladi.

3. Ishchi loyihalar turlari va ularni klassifikatsiyalash

Ishchi loyihalar umumiy va xususiy belgilarga, ishlar mazmunda va ularni bajarish ketma-ketligida farqlarga ega b ladi. 1/larni klassifikatsiyalash asosida yeming funksional roii hamda muhandislik tadbirlarining maqsadlari, texnologik jarayonlaming, yer tuzish loyihalarida yechiladigan masalalar t plamining umumiyligi yotadi (45-jadval)

45-jadval

Yerning funksional roli b yicha ishchi loyihalarini klassifikatsiyalash

Yerning funksional roli	Ishchi loyihalarning har xil guruhlari	Ishchi loyihalarning turlari
1	2	3
Asosiy ishlab chiqarish vositasi	Yerlarni yaxshilash va ularning unumdorligini oshirish	Tabiiy yaylovlar va pichanzorlarni yaxshilash Zaxini opchirish (sh rini yuvish) talab etiladigan yerlarda madaniy-texnik ishlar Su orish yoki zaxini qochirish. Kam unumli yerlarni unumdar qatlam bilan qoplab yaxshilash Sh rxoklarni (qumliklarni) z-lashtirish Yerlarni melioratsiya tarmo ini qayta qurib, kapital tekislash
	Yer turlarini tashkil etish va ularning hududlarini tuzish	Su oriladigan madaniy yaylovlarni yaratish va ularning hududlarni tashkil etish Daraxtzorlarni yaratish va ularning hududlarini tashkil etish Almashlab ekish dalalarini ichki tuzish
Kenglik asos (bazis)	Hududni ishlab chiqarish infratizimi elementlari bilan muhandislik jiozlash	X jalidagi ichki y llarni va y 1 inshootlarini qurish va qayta qurish Asosiy poda y llarini qurish. Suv manbalarini qurish K llar va suv havzalarini qurish Limanlami qurish

45-jadvalning davomi

1	2	3
zida almashtirib b 1 m a y d i g a n chekiangan tabiiy resurslarni ifo- d a l a y d i g a n mehnat predmeti	Yerlarni muhofaza qiliш, ularning xususiyatlarni tiklash va yeturlarining x jalik qiyamatini tiklash	Yerlarni rekultivatsiyalash. Ihota daraxtlarini yaratish Jarliklarni yassilash Tikroq qiyaliklarni terrasalash Selga qarshi inshootlarni qurish Eroziyaga qarshi gidrotexnik inshootlarni qurish

4. Loyihani ishlash ketma-ketligi va uning tarkibi

Ishchi Ioyihalar quyidagi tartibda tuziladi:

- kameral tayyorlarlik va izlanish ishlari tkaziladi;
- loyihalashga topshiriq tayyorlanadi;
- maxsus izlanishlarga topshiriq tayyorlanadi;
- dala izlanishlari tkaziladi;
- loyiha ishlanadi, asoslanadi, kelishiladi, ekspertizadan tkaziladi va tasdiqlanadi;
- materiallar rasmiylashtiriladi, hujjatlar tayyorlanadi va buyurtmachiga beriladi;
- loyiha zlashtiriladi va mualliflik nazorati amalga oshiriladi.

Ishchi loyiha quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: hududni tashkil etish loyihasi; texnologik qism; loyiha-smeta hujjatlari; iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari; qurilish ishlarini bajarishning tashkil etish Ioyihalari.

Loyihalash jarayoni uch bosqichdan iborat b ladi: birinchisi — loyihalash uchun boshlan ich ma'lumotlarni yi ish, tahlil qilish va tayyorlashdan iborat loyiha oldi ishlari; ikkinchisi — dala izlanishlari va qidiruvlari; uchinchisi — yer tuzishni loyihalashning zi. Loyer tarkibiga loyiha rejaidan (asosiy chizma) va boshqa chizmalardan iborat chizma materiallar, tushuntirish xati (bayonnomma) kiradi.

Ishchi loyihaning texnologik qismi, texnologik **chizmalarga** mos har xil loyihami tadbirlarni bajarishning tarkibini va **ketma-ketligini** belgilaydigan texnologik kartalarni z ichiga **Offtdl. Texnologik kartalar b yicha tavsiya etilayotgan tadbirlar hajitl VI**

ularning maydon birligiga t̄ri keladigan qiymati, loyihalangan tadbirlarni amalgaga oshirish uchun zarur texnikaga va boshqa vositalarga b̄lgan talab aniqlanadi.

Ishlarning belgilangan hajmiga, texnologik kartalarga va zarur hisoblangan k̄rsatkichlarga mos tarzda tadbirlarni amalgaga oshirish uchun smeta hujjatiari tuziladi. Natijada, loyihalangan tadbir-larning smeta qiymati, kapital xarajatlar samaradorligi va ishchi loyihani asoslashning boshqa k̄rsatkichlari aniqlanadi.

Loyihada quyidagilar keltiriladi: obyektning joylashgan rni; tumanning tabiiy sharoitlari b̄ yicha tavsifi; qurilish obyektining ishlab chiqarish-x jalik tavsifi; bir ishchiga rejalashtirilgan ish hajmi va zarur ishlab chiqarish bazasining mavjudligi; qurilish muddatlari va ketma-ketligi; ishchi kadrlarga b̄lgan talab; xav-sizlik texnikasi.

5. Smeta-moliya hisob-kitoblari

Smetsa deganda ishchi chizmalarga va ishlar hajmi qaydnomalariga mos muhandislik tadbirlarini va qurilish obyektlarini amalgaga oshirish uchun zarur bir martalik xarajatlar miqdori aniqlanadigan hujjat tushuniladi.

Butun loyihalangan qurilish, ayrim obyektlar, inshootlar va sh. . uchun zarur pul xarajatlari miqdori smeta bahosi hisoblana-di va kapital harajatlarning umumiy miqdorini aniqlaydi. Smetsalar — bu loyiha-qidiruv ishlarni tkazish, qurilishni va kapital xarajatlarni rejalashtirish uchun asosdir. Ular ishlarni t̄ xtovsiz moliyalash uchun sharoit yaratib berishadi, bu yer tuzish chizmalarini va loyihalarni amalgaga oshirishda katta ahamiyatga ega. Loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan kapital xarajatlardan keyingi hisoblashlarda, loyihalanayotgan tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini va ishchi loyihalarning texnik iqtisodiy k̄rsatkichlarini aniqlashda foydalaniadi.

Ishchi loyihalarga smeta hujjatlarining quyidagi turlari kiradi:

— yer tuzishning umumiy qiymatini yoki amaiga oshirilayotgan navbatni qiymatini aniqlovchi loyiha (ishchi loyiha) qiymatining yi ma smeta hisobi;

— kompleks loyiha ishlanadigan, ya'ni yerkarni zlashtirish bilan bir vaqtda uy-joy qurilishiga, yerkarni madaniylashtirishga va boshq. kapital xarajatlar ajratiladigan vaziyatlar uchun xarajatlar ma'lumotnomasi; xarajatlar ma'mumotnomasi mos qurilishning

umumiyligi qiyamatini aniqlovchi yig'ma smeta hisoblari asosida amalga oshiriladi;

- qurilishning aniq turi va maxsus ishlari uchun lokal smeta;
- har bir obyekt uchun jihozlar sotib olishning xarajatlarini va ularni montaj qilish bo'yicha ishlari bahosini aniqlovchi lokal smeta;
- hududning loyihibiy tashkil etilishi obyektiga kiradigan ayrim ish turlarini bajarish yoki inshootlarni qurish qiyamatini aniqlovchi obyekt smetasi;
- loyiha-qidiruv ishlari; ilmiy-tekshiruv, tajriba-konstrukturlik va eksperimental ishlarni bajarish uchun smetalar.

Smeta hujjalarning shakli, tuzish tartibi va usullari korxonalarini, bino va inshootlarni qurish uchun loyiha-smeta hujjalarni ishslash, kelishish va tasdiqlash tartibi ularning tarkibi to'g'risidagi yo'rinnomada belgilangan.

Lokal smetalar ayrim turlardagi qurilish, maxsus va yordamchi ishlarning qiyamatini aniqlash uchun tuziladi. Ularga uchastkalar hududlarini, tuproqlarni ko'chat o'tqazish, ekish uchun tayyorlash, jihozlarni sotib olish bo'yicha ishlar kiradi.

Har bir smetada barcha ish turlari bo'yicha guruhalashtirilgan bo'lishi kerak. Smetalarda va ularning guruhlarida ishlarning bo'limlarda joylashish tartibi ishlarni bajarishning texnologik ketma-ketligiga va pudratchi tashkilotlarning ixtisosligiga mos bo'lishi kerak. Lokal smetalarning mazmuni va ular tarkibidagi guruhalash tartibi ayrim turlardagi ishlarni bajarishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Lokal smetalarni tuzishning texnik asosi ishlarning turlari va hajmlari ro'yxati, texnologik chizmalar va ishchi loyiada yoki ishchi hujjalarda belgilangan ularni bajarish bayonnomasi hisoblanadi. Ishlar hajmining turlari va muhandislik inshootlarning konstruktiv elementlari bo'yicha aniqlash ishchi loyiha chizmalar, ishchi hujjalarni va boshqa loyihibiy ma'lumotlar bo'yicha aniqlanadi yoki mos ishlar hajmi qaydnomalaridan tanlanadi. To'g'ri (bevosita) xarajatlarning miqdori bu xarajatlarning turlari, xarakteri va vazifalari to'g'risidagi loyihibiy yechimlar asosida, geologik, gidrogeologik, topografik, tuproq va iqlim sharoitlari hisobga olib ham aniqlanadi.

Lokal smetalar bo'yicha aniqlanadigan ishlari qiyomatining xarajatlar, ustama sarflari va rejaviy jamg'armalar kiritiladi. Xarajatlar va ustama sarflar miqdoriga belgilangan foydali

rejaviy jam arma hisoblanadi va aniq turdag'i ishning smeta qiy-mati aniqlanadi. Lokal smeta maxsus shaklda tuziladi.

Obyekt smetalari yirik obyektlarni va bir xil obyektlar guruhini qurishning smeta qiymatini aniqlaydi va ayrim inshootlar, ish turlari va xarajatlari b yicha lokal smetalar asosida tuziladi.

Obyekt smetalari quyidagi obyektlar va tadbirdarga tuziladi: suv omborlari, magistral va x jaliklararo kanallar; kollektorlar, in-shootlari, bilan; x jalikning ichki su orish va kollektor-drenaj tarmo'i, inshootlari bilan; madaniy texnik ishlar; yom irlatib su orish texnikasini sotib olish; x jalikning ichki magistral y Uari; almashlab ekishlar yer massivlari va butun dalalar. Ular belgilangan shaklda tuziladi.

Belgilangan tartibda pudratchi tashkilotlar bilan kelishilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangandan keyin, ular qurilishning smeta qiymatini aniqlash uchun asos b lib xizmat qiladi.

Obyekt smetasi, agar obyekt b yicha faqat bir turdag'i ishlar b lsa, tuzilmaydi. Bunday vaziyatda unga ayrim qator qilib lokal smeta b yicha aniqlangan bu ish (xarajat) turining qiymati q shiladi.

Har bir obyekt b yicha tuzilgan smetalar yoki obyekt smetalariiga kirmaydigan lokal smetalar asosida butun loyiha b yicha qurilish qiymatining yi ma smeta hisobi tuziladi. U ishchi loyihasini amalga oshirish bilan bo liq xarajatlarni va t la smeta qiymatini aks ettiradi. Mabla lar 12 bobni z ichiga oladigan, belgilangan nomenkulatura b yicha taqsimlanadi. Ayrim bobda keltirilgan obyektlar, ishlar va xarajatlar b lagan vaziyatlarda bu boblar keyingi boblar tartib raqamlari zgartirilmasdan qoldirib ketiladi.

Yer tuzish loyihalariga xarajatlar yi masi yer tuzish tadbirdarini bajarishning smetalarida hisobga olinadigan kapital xarajatlar-ning umumiy hajmini aniqlash uchun m ijallanadi.

Ishlanayotgan loyiha sharoitlariga bo liq holda yi maga quyidagi yi ma smeta hisoblari kiritilishi mumkin:

— melioratsiya qurilishi uchun;

— qishloq x jaligi ishlab chiqarishi qurilishi uchun, yerlarni qishloq x jaligiga zlashtirish uchun zarur miqdorda;

— yerlarni qishloq x jaligiga zlashtirish uchun, zarur uy-joy-fuqaro qurilishi uchun;

— loyihalanayotgan x jaliklar uchun, x jaliklararo muhan-dislik tormoqlari uchun;

XXII bob.

YER TURLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA ISHCHI LOYHALAR

Agroo'rmon melioratsiya tadbirlarining ishchi loyihasida o'rmon daraxtlari tizimini yaratish, dalalarning himoyalanganligini oshirish, o'rmon daraxtlarini ekish va ularni parvarishiashning oqilona texnologiyasi masalalari ko'rib chiqiladi. Taga mavjud daraxtlarni tuzatish va yaxshilash, yangi bo'yicha ishlar kiritiladi.

Tayyorgarlik ishlari asosida agroo'rmonning turlari va hajmi hamda ishchi loyihasini shiriqda aks ettiriladigan boshqa ko'rsatkichlar (val).

46-jadval

Qishloq xo'jalik korxonasida agroo'rmon melioratsiya tadbirilarining ishchi loyihasini ishlash uchun topshiriq

T.t.	Ko'satkichlar	O'lcham birligi	Soni
1	2	3	4
1	Xo'jalik maydoni — hammasi Shu jumladan: haydalma yerlar yaylovlar va pichanzorlar dov-daraxtlar ulardan ihota daraxtlari polosalari Loyihalangan ihota daraxtlari maydoni — hammasi	ming ga ming ga ming ga ga ga	5,7 3,9 0,8 279,9 16,7
2	Shu jumladan: dala himoya suvlarni tartibga soluvchi yo'llar yokasidagi jarliklar yonidagi suv havzalarini qirg'oqlari bo'ylab kolmatatsiya qiluvchi (mustahkamllovchi) kolmatatsiya qiluvchi (tuproqlarni tayyorlamasdan)	ga ga (km) ga (km) ga (km) ga (km) ga (km)	93,2 17,7 (19,7) 5,7 (6,3) 20,7 (12,2) 28,0 (15,5) 9,4 (7,8)
3	Haydalma yeriarning daraxtlari bilan himoyalanishi: loyiha o'zlashtirilganiga qadar loyiha o'zlashtirilganidan keyin	ga	1,1
4	Xo'jalik hududining himoya daraxtlari bilan qoplanishi: loyihani tuzish davrida	%	11,0
5	loyiha o'zlashtirilganidan so'ng Ko'chatlarga bo'lgan talab — hammasi	%	6,5
6	Shu jumladan: ko'chatlar ildizli qalamchalar 1 ga yaratishning taxminiy qiymati*: ihota daraxtlari polosalari suvlarni tartibga soluvchi polosalari yo'llar yokasidagi polosalari jarliklar bo'yidagi polosalari suv havzalarini qirg'oqlaridagi daraxtlari kolmatatsiyalovchi daraxtlari (chuqurlar qazish bilan) kolmatatsiyalovchi daraxtlari (chuqurlar qazimasdan)	ming dona ming dona ming dona % ming so'm ming so'm	314,8 309,7 5,1 4,9 6,5 6060 4914 6360 4040 5451 4684 1036


* 1991-yil baholarida.

46-jadvalning dayomi



1	2	3	4
7	Ishlar quyidagilar hisobiga moliyalanadi: qisltloq xo'jalik organlari orqali davlat byudjeti o'rmon xo'jaligi organlari orqali davlat byudjeti Jami moliyalash Ishlarni bajaruvchi	ming so'm	266,93
8.		ming so'm ming so'm	215,15 482,08 o'rmon xo'jaligi

Ishchi loyihani ishlash uchun oldin tuzilgan xo'jalikdagi ichki yer tuzish loyihasi asos hisoblanadi. Shunga mos tarzda, uning chizma qismi xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining aniqlangan chizmasi (loyiha rejai) hisoblanadi, unda xo'jalik hududidagi har bir turdag'i daraxtlarning joylashgan o'mi aniq ko'rsatilgan.

Chizmada sharnollar yo'nalishlari, xo'jalikda ichki yer tuzish elementlarining shartli belgilari va sh.o'. ko'rsatiladi (27-rasm)



27-rasm. Agroel'mon melloratsiya tedbirlarining ishlash



28-rasm.
4 qatorli ihota
daraxtlari polosalarini
yaratishning
texnologik
chizmasi.

- loyihibiy yechimlarni amalga oshirish topshirilgan tashkilotlar nomlari;
- ishlarni bajaruvchilar uchun belgilangan ustama xarajatlar miqdori va ularni asoslash;
- ihota o'rmon polosalarini yaratishning smeta qiymatini aniqlash tartibi.

Ishchi loyiha loyiha-smeta hujatlari, agroo'rmon melioratsiyasi obyektlarining joylashishi rejaini va sh.o'. tasdiqlash to'g'risidagi bayonnomma (buyruq) ham ilova qilinadi. Arxiv nusxasi tarkibiga qo'shimcha tarzda dala izlanishlari jurnallari va chizmalari kiritiladi.

Agroo'rmonmelioratsiyasi tadbirlari samaradorligi kapital xarajatlarning qoplanish muddati, himoyalangan maydonlardan olinadigan qo'shimcha sof daromad bilan tavsiflanadi.

Bu vaziyatda ishlarni bajarish texnologiyasi tuproqlarga ishlov berish, daraxtlarni o'tkazish va ko'chatlarni parvatishlash usullarini o'z ichiga oladi. Ishlarning to'la ro'yxati va ularning takrorlanishi, smeta hisoblarida joylashishi, agregatlar tarkibi, har bir turdag'i daraxtlarni yaratish agrotexnikasi, daraxtlarning asosiy turlari va 1 ga hisobiga ko'chatlarga bo'lgan talab, odatda, texnologik chizmalarda aks ettiriladi. (28-rasmida bunday chizmaning 4 qatorli ihota daraxtlari polosalari uchun misoli keltirilgan).

Smeta-moliya hisob-kitoblari quyidagi hujatlarni o'z ichiga oladi:

- ayrim ish turlari bo'yicha smetalar; ko'chatlar bahosi va transport xarajatlari kalkulyatsiyasi; lokal smetalar; yig'ma smeta hisobi.

Hujatlarga qisqacha tushuntirish xati ilova qilinadi, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- ishlarni bajarish rayoni va ta'rif poyasi; hisoblashlarda foydalanilgan baholar va me'yorlarning qaysi yilga mansubligi;
- rejaviy jamg'armalarning miqdorlari;

— loyihibiy yechimlarni amalga oshirish topshirilgan tashkilotlar nomlari;

— ishlarni bajaruvchilar uchun belgilangan ustama xarajatlar miqdori va ularni asoslash;

— ihota o'rmon polosalarini yaratishning smeta qiymatini aniqlash tartibi.

Ishchi loyiha loyiha-smeta hujatlari, agroo'rmon melioratsiyasi obyektlarining joylashishi rejaini va sh.o'. tasdiqlash to'g'risidagi bayonnomma (buyruq) ham ilova qilinadi. Arxiv nusxasi tarkibiga qo'shimcha tarzda dala izlanishlari jurnallari va chizmalari kiritiladi.

Agroo'rmonmelioratsiyasi tadbirlari samaradorligi kapital xarajatlarning qoplanish muddati, himoyalangan maydonlardan olinadigan qo'shimcha sof daromad bilan tavsiflanadi.

O'rmon polosalarining ular ekilgandan keyin birinchi yillardagi himoya ta'siri kam bo'lishini hisobga olib, xarajatlarning real qoplanish muddati N, taxminan quyidagi G.I.Goroxov tavsiya etgan ifoda bo'yicha aniqlanishi mumkin, yil:

$$N = Q \sqrt{10 \left(1 + \frac{4K}{d} \right) \cdot \left(1 + \frac{2g}{d} \right)}$$

bunda K — o'rmon polosalarini yaratish uchun xarajatlar; Q — mintaqaviy koefitsient (xo'jalik joylashgan mintaqaning daraxtlar o'sish sharoitlariga, daraxtlar o'sish tezligiga bog'liq holda 0,07 dan 2 gacha o'zgaradi); d — himoyalangan maydonlardan olinadigan qo'shimcha mahsulotdan keladigan qo'shimcha sof daromad; g — o'rmon polosalari bilan band maydonlardan olinmaydigan (yo'qotiladigan) sof daromad, aylanish polosalarida hosildorlikning pasayishi va sh.o'. hisobiga qo'shimcha xarajatlar.

Pichanzor va yaylovlarni yaxshilash ularning unumdorligini va mahsuldarligini oshirish, pichanzorlar va yaylovlarni parvarishlash bo'yicha ishlarni mexanizatsiyalash uchun hududiy sharoitlar yaratish maqsadida o'tkaziladi. Buning hammasi ozuqa bazasini mustahkamlashga, mollar mahsuldarligining va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmlari o'sishiga yordam etadi.

Ishchi loyiha yer turlarini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni asoslashni, ishlarni bajarish texnologiyasini, ularning hajmini va zarur resurslarni (urug'lik, o'g'itlar va boshq) o'z ichiga oladi. Kam va yo'qolib ketayotgan o'simliklar, yovvoyi hayvonlar va qushlarni muhofazalash bo'yicha tadbirlar ham nazarda tutiladi. Ishchi loyiha yaylovlar va pichanzorlar hududlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlar bilan, agar ular xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasiga kiritilmagan bo'lsa, to'ldirilishi mumkin (47-jadval).

47-jadval.

Pichanzorlar va yaylovlarni yaxshilashning ishchi loyihasi tarkibi va mazmuni

Loyiha bosqichlari	Loyiha tarkibi	Loyiha elementlari
1	2	3
1. Tayyorgarlik ishlari	1. Yaxshilashga mo'ljalangan pichanzor va yaylovlar uchastkalarini tanlash va ular tavsifi	1. Loyiha oldi materiali (yer tuzish chizmalarini yaylovlarni yaxshilashda ichki yer tuzish)

47-jadvalning davomi

1	2	3
		<p>2. Tuproq va geobotanika izlanishlari materiallarini o'rganish Yaxshilanadigan uchastkalar maydonlarini va ular joylashgan joylarni xo'jalik rejorda aniqlash</p>
	<p>2. Loyihalash uchun topshiriqni ishlash</p>	<p>1. Dala izlanishlari, ishlarning hajmini va turlarini, uchastkalarning joylardagi chegaralarini aniqlash 2. Xo'jalikda ichki yer tuzish joyihasi bo'yicha loyihalangan yaylov va pichanzor almashishlarga mos tarzda yaxshilash navbatini aniqlash 3. Ishlarni yillar va bajaruvchilar bo'yicha taqsimlash</p>
	<p>3. Maxsus izlanishlar o'tkazish (geobotanika, tuproq, tuproq melioratsiya va boshq.)</p>	<p>1. Uchastkalarning juda murakkab sharoitlarini aniqlash (eroziyaga uchrash, zaxlashish, shoranish) va ularni yaxshilash bo'yicha oldindan tavsiyalar tayyorlash 2. O'simliklarning bioqrimiy tarkibini va uni almashtirishning maqsadga muvofigligini baholash (troyob va yo'q-oilib boraygan o'simlik turlarini saqlashni hisobga olib)</p>
2. Loyihani tuzish	<p>1. Yaxhilangan pichanzor va yaylovlar hududini tuzish (agar xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi tuzilmagan yoki eskirgan bolsa)</p>	<p>1. Yaylovlar va pichanzorlarni fermalar va brigadalarga biriktirish 2. Poda (otar) uchastkalarini joylashtirish 3. Yaylov va pichanzor almashishlarni ishlash 4. Navbat bilan mollar qamab boqiladigan maydonlarni va pichanzor almashish uchastkalarini joylashtirish 5. Poda yo'llarini, yozgi lagerlarni, suv manbalarini va yo'l tarmog'ini joylashtirish</p>
	<p>2. Yer turlarini yaxshilash texnologiyasini ishlash</p>	<p>1. Yer turlarini yaxshilash bo'yicha ishlarni o'tkazishning namunaviy texnologik chizmalarini tanlash. 2. Uchastkalarning texnologik xususiyatlariiga bog'liq holda ishlarni bajarishning va texnika harakatining oqilona usullarini aniqlash</p>

47-jadvalning davomi

1	2	3
		3. Toshlar, to'rnkalar, yog'ochlar to'planadigan ishchi maydonchalarini joylashtirish 4. Madani va organik o'g'itlarga, ohakka va sh.o'. bo'lgan talabni hisoblash 5. Texnikaga, moddiy va mehnat resurslariga bo'lgan talabni hisoblash
	3. Smeta moliya hisob- kitoblari va loyihami asoslash	1. Lokal smetalarni tuzish 2. Obyekt smetalarini tuzish 3. Yig'ma smeta hisobini tuzish 4. Sof daromadni, yillik xarajatlarni va kapital xarajatlarning qoplanish mud- datinini hisoblash
3. Loyerhanni amalga osh- rish		1. Loyerhanni joylarga ko'chirish bo'yicha ishchi chizmalarni tuzish 2. Materiallarga, pulga va boshqa resurslarga bo'lgan talablarni yillar bo'yicha taqsimlab uchastkalarni yaxshilash rejasini tuzish Ishechi loyihasining bajarilishi ustidan mualliflik va texnik nazorat o'rnatish Paydo bo'ladigan o'zgarishlarni hisob- ga olib, ishchi loyiha tuzatishlar kiri- tish

Tayyorgarlik ishlari yaxshilanayotgan uchastkalarning joylarda-
gi chegaralari va maydonlariga aniqlik kiritish, ularning madaniy-
texnik ahvolini va bajarilishi kerak bo'lgan ishlarning hajmini
aniqlash, joylarning tuproq qatlami, refezi, namianish sharotlari-
ning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun yaxshilash.
Loyihalash uchun topshirorda yaxshilash shartlari, shartlari
turlari va konturlari, rejalashish shartlari, shartlari
yotgan hosildorligi umumiy xajmi va
to'g'ri keladigan shartlari, shartlari
ratchi, ishlarni boshlash uchun
maxsus shartlari ko'ra bilish.

Tayyorgarlik ishlari va bevosita loyihani tuzish orasidagi bo lovchi b in — maxsus qidiruv va izlanishlarni bajarishdir. Birinchi navbatda, tlar va ozuqa olinadigan yer turlarining madaniy-texnik ahvoli t risida zarur ma'lumotlarni olish uchun geobotanik va madaniy-texnik izlanishlar tkaziladi.

Dala izlanishlari ma'lumot!ari maxsus jurnalga yoziladi, unda quyidagilar k rsatiladi: yer turlarining chakalakzorlashish va rmonlashish darajasi; daraxtlar turlari tarkibi va ularning diametrлari; toshlar bilan ⁿ>>>slanish darajasi; d ngliklar Ichamlari va k pligi; chim qatlan- qalinligi. Bulardan tashqari, su urilgan butalar, daraxtlar, t nk^tr, toshlarni t planadigan joylarga cha tashish masofasi aniqlanatu.

Dala madaniy-texnik Izianishlari natijalari b yicha chizma tayyorlanadi, unda shartli belgilar bilan pichanzorlar va yaylovlardan foydalanishning mavjud holati va hisoblangan maydon-chalarni joylashtirish rinnari; eroziyaga qarshi va suv himoya ahamiyatiga ega dov-daraxtlar konturlari; d ngliklarga ega va toshloqlashgan uchastkalar, yer turlari konturlari b yicha tuproqlarning kislotalanish darajasi; ishlar texnologiyasiga ta'sir k rsatidigan muhandislik tarmoqlarning mavjudligi va ularning joylashishi k rsatiladi; suv-himoya mintaqalari va qir oq b yi polosalari chegaraiari belgilanadi. Zarurat tu ilganda boshqa turlardagi maxsus izlanishlar yirikroq masshtabda (1:500, 1:2000) tkazilishi mumkin.

Pichanzorlar va yaylovlarning mavjud holatidan, ularning ekologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni yaxshilash b yicha ishlar m ijallanadi, u yoki bu tadbirlarga ya ularni bajarish texnologiyalariga b lgan talab aniqlanadi. Tubdan va yuzaki yaxshilash tadbirlari tarkibiga madaniy-texnik, agrotexnik va agromelioratsiya ishlari, yerlarni madaniylashtirish va tloqlashtirish kiritiladi. z navbatida, madaniy-texnik ishlar toshlarni terish, daraxt va butalardan tozalash, chuqurlar va yuvilgan joylarni k mish b yicha ishlarga b linadi.

Avvaliga, yer ustidagi va yarim k milgan toshlarni yi ish texnologiyasi ishlanadi, u katta va rta toshlarni buldozer yoki maxsus tosh yi uvchi mashina KUM—1,2 bilan chiqarib olishni, ularni yuklash joyiga olib kelishni, keyin esa ularni transport vositalariga yuklab, ular saqlanadigan joyga olib ketishni k zda tutadi. Keyin, mayda rmon daraxtlari va butalardan tozalash b yicha ishlar texnologiyasi belgilanadi. Gumus qatlamini maks-

mal saqlash uchun sug'urilgan daraxtlar va butalar ildizlarini yaxshilab qoqish bilan maydonlarni bo'lib tozalash, hamda hududni eng minimal chuqurlikda qirqish va balandlikda ko'mish bilan tekislash mo'ljallanadi. Bo'y 3 metrgacha, poyasi diametri 6—8 sm bo'lgan butalarni oldindan qirqmasdan botqoqlik-chakalazor pluglari PBN—75 va PBN—100 A bilan 60—70 sm chuqurlikda ag'darib shudgorlab yuborish mumkin. Ayrim turgan daraxtlar va yirik to'nkalar D—695, KBP—2 sug'urgichlari bilan sug'urib olinadi. Uyumlarga yig'ilgan butalar massasi yo'qotiladi yoki xo'jalik maqsadlarida foydalaniadi.

Do'ngliklar bilan qoplangan uchastkalar uchun shudgor oldi yorish va qirqish operatsiyalarini o'z ichiga oladigan maxsus yaxshilash texnologiyasi ishlanadi. Do'ngliklarni kattaligiga bog'liq holda yorish bir ikki izda, 8 dan 22 sm gacha chuqurlikda o'tkaziladi. Buning uchun yorish mashinalari FBN—2,0, botqoqlik yorg'ichi FBN—1,5 yoki diskali boronalardan foydalaniadi. Toshlar va daraxt-buta o'simliklari yig'ib olingandan keyin paydo bo'lgan chuqurlar va o'yiqlar greyderlar yoki buldozerlar bilan tekislanadi.

Tubdan yaxshilashda yuzaki yaxshilashdan farqli o'laroq, qo'shimcha birlamchi shudgorlash, chim qatlamini maydalash, tuproqlarni aralashtirish ishlarini bajarish ko'zda tutiladi.

Soz va og'ir qumoq tuproqlarda pichanzorlar va yaylovlarning suv-havo rejimlarini yaxshilash uchun yerlarni quritish maqsadga muvofiq bo'lmasa yoki uni o'tkazish imkoniyati yo'q bo'lsa, ishchi loyihada yerlarni yorish yoki kichik drenajlar qilish mo'ljalanadi. Kichik drenajlash hududning eng katta nishabligi tomonga qarab shudgorlashdan keyin yoki u bilan bir vaqtida kichik drenaj mashinalaridan MD—1 yoki RK—1,2 foydalanim o'tkaziladi. Kichik drenajlar orasidagi masofa 2—3 m, ularni qirqish chuqurligi 30—40 sm, drenajchalarni olish davri 3—4 yilda 1 martani tashkil etadi. Yorishni 2—3 yilda 1 marta SHN—2—140 yorg'ichi bilan 20—25 sm chuqurlikda, yoriqlar orasidagi masofani 0,7 m qilib o'tkazish tavsiya etiladi.

Yaylovlar va pichanzorlarni madaniylashtirish larga tuproqlarni ohaklash, ma'danli va organicheskij roqlarning agrokimyoiy xususiyatlari hissildorlikka bog'liq bo'ladi; odadta fosfor moddasi, 60—90 kg kaliyli, 30

di. Organik o'g'itlar 1 ga 20—30 tonnadan kam bo'lmagan, ohak 3 dan 8 tonnagacha miqdorda solinadi.

O'tloqlashtirish (ko'p yillik o'tlarni ekish) yaylovlar va pichanzorlarni tubdan yaxshilashda, o'tlarni qo'shimcha ekish — yuzaki yaxshilashda bajariladi. Ishchi loyihada o'tloqlashtirish usullari aniqlanadi, o'tlar aralashmalari tanlanadi, urug'likni ekish me'yordi va usullari belgilanadi. Amaliyotda o'tloqlashtirishning birbirlaridan hududiy belgilari (yoppasiga yoki polosalab o'tloqlashtirish) va ishlarni bajarish jadalliklari (tezlashtirilgan va asta sekin) bo'yicha farq qiladigan bir necha usullari qo'llaniladi. Polosalab o'tloqlashtirish suv va shamoj eroziyalari tarqalgan mintaqalarda rejalanadi; bunda tabiiy o'simliklar va yangidan yaratilgan yer turlari polosalari almashinib turadi. Cho'l va quruq cho'l mintaqalarida, namlik yetishmasligi va kam quvvatli chim qatlami sharoitida tezlashtirilgan o'tloqlashtirish qo'llaniladi, unda o'tlarni ekish bevosita shudgorlangan chim qatlamida bajariladi.

Ishchi loyihaning ko'rsatilgan qismi tugatilgandan keyin yaylovlar va pichanzorlarni tubdan yoki yuzaki yaxshilashda ishlarni bajarishning texnologik kartalari yoki texnologik chizmalarini tuziladi.

Yerlarni rekultivatsiyalash quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- qishloq xo'jalik yerlarining buzilgan uchastkalarida tuproqlarning fizik, kimyoiy va biologik xususiyatlarini to'la va qisman tiklash;

- buzilgan uchastkalarning texnologik xususiyatlarini (teli, shakli va boshq.), ularni xo'jalikda foydalanishga o'sh qaytda qo'shish uchun optimallash;

- buzilgan yerlardan oqilona foydalanishni va ular hoddidini tuzishni tashkil etish.

Bunda loyihalangan tadbirdarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorliklari ta'minlangan bo'lishi kerak.

Ishchi loyihaning tarkibi va mazmuni rekultivatsiyalash obyektiiga, uning maydoni va joylashishiga, yerlarning huquqiy rejaligiga, uchastkaning buzilgan holatda bo'lgan vaqtiga, rekultivatsiyalash yo'nalishiga, hamda ishlangan chizmalar va yerlardi rekultivatsiyalashning TIA, xo'jaliklararo va xo'jalikda ichki yer tuzish loyihalaring mavjudligiga bog'liq bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan yerlar rejorashtiri'shish ganda, u bilan bog'liq tuproq-o'simlik qatlami buziladigan bo'lsa, ishchi loyihalar, rekultivatsiyalash leviyasi qishloq tuzish nida.

dan tayyorlangan texnik sharoitlar asosida va ularni hisobga olib, tuziladi. Bu sharoitlar yer uchastkasini berish b yicha yer tuzish loyihasi tarkibiga kiritiladi va loyihalashga topshiriq tayyorlash uchun asos b lib xizmat qiladi. Bunda yerlarni rekultivatsiyalash b yicha ishlarni texnologiyasini tanlash hamda ularni tashkil etish va boshqa ishlarni tkazish chizmasini tanlash bilan chambarchas bo langan holda tkazilishini hisobga olish kerak.

Agar yer uchastkasi ilgari buzilgan b lsa, t la hajmdagi mustaqil ishchi loyiha ishlanadi, sababi, rekultivatsiyalash b yicha loyiha yechimlari asosiy ishlab chiqarishning texnologiyasi zgarishi bilan bo liq emas.

Rekultivatsiyalash samaradorligini baholash har xil k rsatkichlar b yicha tkaziladi. Ularni tanlash ishlanayotgan tadbirlarning darajasi va masshabiga, rekultivatsiyalangan yerlardan m ijallanayotgan foydalanishga va boshqa omillarga bo liq b ladi. Quyidagilardan eng k p foydalaniladi:

- kapital xarajatlarning umumiy (absolyut) samafadorligi;
- yi ma iqtisodiy va ekologik samara;
- kapital xarajatlarning nisbiy iqtisodiy samaradorligi.

Ishchi loyihalarda rekultivatsiyalash kapital xarajatlarning umumiy samaradorligi k rsatkichi sof daromad sishi miqdorining va ijtimoiy-ekologik samaraning yerlarni rekultivatsiyalashning texnik va biologik bosqichlari, hamda keyinchalik qishloq x jaligi uchun zlashtirish va foydalanish xarajatlari miqdoriga nisbati sifatida aniqlanadi.

Nazorat savollari

- (R)
1. Yer turlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish b yioha ishchi loyihalarini ishlash uchun nimalar asos hisoblanadi?
 2. Ishchi loyihalarini tuzish uchun topshiriqdan qanday maqsadlarda foydalaniladi va uning mazmuni qanday?
 3. Yaylovlar va pichanzorlarni yaxshilash b yicha ishchi loyihasining texnologik qismiga nimalar kiradi?
 4. Har xil ishchi loyihalarini ishlashdagi smeta-moliya hisobkitoblari xususiyatlari.
 5. Ishchi loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun foydalaniadigan usullar va k rsatkichlar.

А Д А Б И Й О Т Л А Р

- I. АBe36aeB C. PauHOHajibHoe Hcnojib30BaHHe 3CMejib B HH30Bbax AMyjjapbH. T.: Mehnat, 1990. - I54-b.
2. Avezbaev S. Yer tuzishni loyihalash. 1. Yer tuzishni loyihalashning ilmiy-uslubiy asoslari, tumanda yer tuzish (ma'ruzalar matni). — T.: TIQXMII, 2000. - 96-b.
3. Avezbaev S. Yer tuzishni loyihalash. 2. X jaliklararo yer tuzish (ma'ruzalar matni). - T.: TIQXMII, 2000. — 70-b.
4. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishning ilmiy asoslari: Darslik. T.: Yangi asr avlodи, 2002. — 228-b;
5. Avezbaev S. Volkov S.N. Yer tuzish iqtisodi. Darslik. T.: Yangi asr avlodи, 2002. - 290-b.
6. BOJIKOB C.H. 3eMJieycTpoHCTBo. 3eMJieycTpoHTejibHoe npoeKTnpo-BaHHe. TOM 2: Darslik. — M.: Kolos, 2001 — 648-b.
7. BOJIKOB C.H. 3eMJieycCTDOHCTBO. SKOHOMHKO-MaTeMaTHHeCKHe MCTOabl H MoaejiH. TOM 4: Darslik. — M.: Kolos, 2001 — 696-b.
8. 3eMJieycTpoHTejibHoe npoeKTHpoBaHHe: Darslik / V.D.Kiryuxin tahriri ostida. - M.: Kolos, 1976. - 528-b.
9. 3eMJieycTpoHTejibHoe npoeKTHpoBaHHe: Darslik / M.A.Gendelman tahriri ostida. — M.: Agropromizdat, 1986. — 511-b.
10. 3eMJieycrpoHTejibHoe npoeKTHpoBaHHe: Darslik /S.N. Volkov tahriri ostida. — M.: Kolos, 1997. - 608-b.
- II. Qishloq x jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'-yoriy hujjatlar t plami. I va II qismlar.— T.: Sharq, 1998. — 416-b., - 398-b.
12. MacjioB A.B., KHycoB A.r., TopoxoB TM. — Teo,ae3HHeCKHe pa6oTbi npn 3eMJieycTpoHCTBe: O'quv q Uanmasi. M.: Nedra, 1990. —215-b.
13. zbekiston Respublikasining yer resurslari Atlasi. — T.: RDERQ, 2001, - 64-b.

S.AVEZBAYEV, S.N.VOLKOV

YER TUZISHNI LOYIHALASH

O'zbekiston faylasuflari
milliy jamiyati
Toshkent -- 2006

Nashr uchun mas'ul *M.Tursunova*
Muhabbirlar: *G.Zokirova, Q.Qayumov*
Sahifalovchi T.Ogay
Musahhih N.Zokirova

Terishga berildi 02.10.2006.. Bosishga ruxsat etildi 06.12.2006. Bichimi 60x84^{1/16}.
«Tayms» garniturasi. Ofset bosma. Sharli bosma tabog'i 31,5. Nashriyot-hisob
tabog'i 31,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma №...

MCHJ «Ma'rifat Print» bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, So'gallı ota ko'chasi, 7-uy.